

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI
FARG'ONA POLITEKNIKA INSTITUTI
«ISHLAB CHIQARISHDA BOSHQARUV» FAKULTETI
«IQTISODIYOT» KAFEDRASI

“TASDIQLAYMAN”

fakultet dekani
dots.I Yormatov

“ ____ ” ____ 2018 y.

“HIMOYAGA

QO'YILDI”kafedra mudiri
G.Davlyatova

“ ____ ” ____ 2018y.

“Kasb ta'limi” yo'nalishi 4-kurs 45-14guruh bitiruvchisi

Jo'rayev Ahliddinning

**“O'quvchilarning kasbiy bilimlarini rivojlantirishda ta'limning interaktiv
strategiyasini shakllantirish mexanizmi” mavzusidagi**

BITIRUV MALAKAVIY ISHI

Ilmiy rahbar: _____ Z.Usmonova

Ilmiy maslaxatchi: _____

Fargona -2018

MUNDARIJA

KIRISH.....

**I-bob. TA'LIM TIZIMIDA INTERAKTIV STRATEGIYANI
SHAKLLANTIRISH MEXANIZMINING NAZARIY
ASOSLARI.....**

1.1.O'quvchilarning kasbiy bilimlarini rivojlantirishning zaruriyati va ahamiyati.....

1.2. Interaktiv usullardan foydalanish kasbiy bilimlarni rivojlantirishning muhim yo'nalishi sifatida.....

1.3.Ineraktiv usullardan foydalanish samaradorligi
.....

**II-bob.RISHTON PEDAGOGIKA VA IQTISODIYOT KASB HUNAR
KOLLEJIDA KASBIY BILIMLARNI BERISHDA QO'LLANILADIGAN
INTERAKTIV USULLARDAN FOYDALANISH HOLATINI
BAHOLASH.....**

2.1.Rishton pedagogika va iqtisodiyot kasb hunar kollejining boshqaruv tuzilmasi va pedagogik salohiyatini baholash.....

2.2.Dars mashg'ulotini tashkil etish va o'tkazish holatini baholash.....

2.3 Kollejning moddiy texnik bazasini baholash.....

**III-bob. KOLLEJDA KASBIY BILIMLARNI RIVOJLANTIRISHDA
INTERAKTIV STRATEGIYANI SHAKLLANTIRISHNI
TAKOMILLASHTIRISH.....**

3.1.Mutahasislik fanlari bo'yicha dars mashg'ulotlarini tashkil etish texnologiyasini takomillashtirish.....

3.2. Interaktiv texnologiyalarni qo'llashni rag'batlantirish.....	
Xulosa va takliflar.....	
Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati.....	
Ilovalar.....	

KIRISH

Mavzuning dolzarbligi. O'zbekiston Respublikasida iqtisodiyot, ijtimoiy soha va ta'lim tarbiyani rivojlantirish, aholi turmush darajasini yaxshilash uchun mamlakatimiz hukumati oldida turgan vazifalardan biri – yuqori malakali kadrlar tayyorlashdan iboratdir.

Respublika xayotining har bir sohasidagi o'zgarishlar mamlakatimizda ta'lim - tarbiya olayotgan va chet mamlakatlarda o'z malakalarini takomillashtirib qaytayotgan bilimli, malakali milliy kadrlarga talabni, e'tiborni yanada oshirish kerakligidan darak beradi.

Hozirda Yurtboshimiz Shavkat Mirziyoyev tomonidan ta'lim tizimiga berilayotgan e'tibor juda katta bo'lmoqda. Bunda ayniqsa oliy ta'lim tizimi muhim ahamiyat kasb etmoqda. Oliy ta'lim tizimini tubdan takomillashtirish, mamlakatimizni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish borasidagi ustuvor vazifalarga mos holda, kadrlar tayyorlashning ma'no-mazmunini tubdan qayta ko'rib chiqish, xalqaro standartlar darajasida oliy malakali mutaxassislar tayyorlash uchun zarur sharoitlar yaratish maqsadida 2017-yil 20-aprelda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Oliy ta'lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori qabul qilindi. Qarorga ko'ra, oliy ta'lim tizimini kelgusida kompleks rivojlantirishning muhim vazifalari belgilab berildi. Qarorda belgilangan vazifalarning samarali yechimini to'liq ta'minlash maqsadida oliy ta'lim darajasini sifat jihatdan oshirish va tubdan takomillashtirish, oliy ta'lim muassasalari moddiy-texnika bazasini mustahkamlash va modernizatsiya qilish, ularni zamonaviy o'quv-ilmiy laboratoriyalari, axborot-kommunikatsiya

texnologiyalar bilan jihozlash maqsadida Oliy ta'lim tizimini 2017-2021 yillarga mo'ljallangan kompleks rivojlantirish dasturi tasdiqlandi.

Iqtisodiy tizimini yanada takomillashtirish maqsadida kasb-hunar kollejlari malakali mutaxassis kadrlarni tayyorlash tizimini tubdan isloh qilish "Ta'lim to'g'risida"gi Qonun va "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi"ni hayotga tatbiq etish tadbirlarini amalga oshirish jarayonida kasbga yo'naltirish bo'yicha faoliyatni takomillashtirishda ta'lim berishning nazariy, amaliy, noan'anaviy usullarini, ilg'or pedagogik texnologiyalarni qo'llash davr talabidir.

O'tgan yili hammasi bo'lib 540 dan ziyod ob'ekt, shu jumladan, 380 ta maktab, 160 dan ortiq kasb-hunar kolleji va akademik litsey tubdan yangilanganligini mazkur maqsadlar uchun qariyb 550 milliard so'm sarflanganligi, ushbu mablag'larning 120 milliard so'mdan ortig'i ta'lim muassasalarini o'quv, laboratoriya va ishlab chiqarish uskunalari, kompyuter va multimedia vositalari bilan ta'minlash uchun ajratilganligini shuningdek ta'lim-tarbiya sohasining yaxlit, uzluksiz tizimini shakllantirish va mustahkamlash, jumladan, umumiy o'rta ta'limdan boshlab o'rta maxsus, kasb-hunar hamda oliy ta'limgacha bo'lgan barcha bosqichlarda yuksak bilimli va malakali kasb tayyorgarligiga ega bo'lgan avlodni tarbiyalash jarayonini takomillashtirish ishlari izchil davom ettirilayotganligiga alohida to'xtalib o'tdi.¹

Ma'lumki, O'zbekiston Respublikasining «Ta'lim to'g'risida»gi qonuni va «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi»da ta'limda islohotlarni amalga oshirishni ko'zda to'tadi. Innovatsion texnologiyalardan foydalangan holda iqtisodiy tarbiyani mustahkamlash va bu jarayonni axborot ta'minotini zamon talablariga

¹ O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimovning 2014-yilda mamlakatimizni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish yakunlari hamda 2015-yilga mo'ljallangan iqtisodiy dasturning eng muhim ustuvor yo'nalishlariga bag'ishlangan Vazirlar Mahkamasining majlisidagi ma'ruzasi. 16.01.2015 y.

javob bera oladigan ko'rinishga keltirish, kadrlar tayyorlashda muhim ahamiyatga ega ekanligi ta'kidlanmoqda.

Innovatsion texnologiyalarni vujudga kelishi, bu jamiyat rivojlanishi va talablar o'zgarishining natijasidir. Har bir yangi davr o'z o'zgarishlarini va yangiliklarini taqozo etadi. Yangi innovatsion texnologiyalarning maqsadi har yangi bosqichda asosan ta'lim va tarbiya samarasini oshirishga qaratilgandir. Ta'lim-tarbiya jarayoni samarasini oshirish yangi sifat darajasiga o'tish imkonini beradi. Bu maqsadga erishish uchun esa innovatsion texnologiyalarni, ya'ni o'qish jarayonining borishi va tashkil qilishni yangi samarali ko'rinishlarini ishlab chiqish lozim. Ushbu innovatsion texnologiyalar hozirgi davr uchun, ya'ni insonning rivojlanish darajasi va texnikaning rivojlanish darajasiga mos tushishi hamda inson va texnik resurslarni uyg'un birlashishini ta'minlashi kerak. Mana shu maqsad va vazifalardan kelib chiqqan xolda innovatsion texnologiyalarning mazmuni bugungi kunda keng ko'lamda qaraladigan bo'lsa, gumanitarlashtirilishi, individuallashtirilishi, rivojlantirishga yo'naltirilishi darkor.

Innovatsion texnologiyalarni o'quv jarayoniga tadbiq etish bugungi kunda dolzarb hisoblanganligi uchun mazkur muammo yuzasidan respublikamiz va xorijlik pedagoglar tomonidan tadbiq etib kelinmoqda. Shuni aloxida ta'kidlash lozimki, iqtisodiy fanlarni o'qitish jarayoniga innovatsion texnologiyalarni olib kirish muammolari xususida bir qator olimlar ilmiy izlanishlar olib borgan. Ta'lim tizimida yangiliklarni tezkorlik bilan interpretatsiya qilish imkoniga ega bo'lgan texnologiyalarni joriy qilinishini tezkor davr talab qilmoqda.

2017-2021 yillarda oliy ta'lim tizimini tubdan takomillashtirish dasturini ishlab chiqish, o'quv dasturlarini yanada takomillashtirish, pullik xizmatlar ko'rsatish va moliyalashtirishning qo'shimcha manbalarini izlashda oliy o'quv yurtlarining vakolatlarini kengaytirish yo'li bilan ularning mustaqilligi bosqichma-bosqich rivojlantirilib boriladi.

Keyingi bir yilda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti va Vazirlar Mahkamasining yetmishga yaqin qaror, farmon va farmoyishlari qabul qilindi. Bu tom ma'noda ta'lim tizimidagi o'zgarishlar va yangilanishlar jarayonini boshlab berdi.

O'rta maxsus ta'lim tizimiga joriy yilda birinchi marta 10-sinflarga o'quvchilar qabul qilish yo'lga qo'yildi. Bu akademik litsey va kasb-hunar kollejlariga qabul jarayoni bilan barobor olib borildi. Bunda asosan ota-onalar va o'quvchilarning xohish va istaklari inobatga olindi.

Prezidentimiz sohada amalga oshirilayotgan ishlarni yanada takomillashtirish bo'yicha ota-onalar va o'quvchilarning fikrlarini inobatga olish, ular bilan «ochiq eshiklar» kunlari kabi tadbirlar tashkil qilib, uchrashuvlar o'tkazish kerakligini alohida ta'kidladi.

2016/2017 o'quv yilida 466 mingdan ortiq o'quvchilar umumta'lim maktablarini tamomlagan bo'lib, shundan 170 mingdan ziyodi kasb-hunar kollejlariga o'qishga kirgan. 288 ming, ya'ni oltmish foizidan ortig'i 10 sinflarda o'qishlarini davom ettirmoqda.

Bitiruv malakaviy ishining maqsadi – Kollej talabalarini iqtisodiy savodxonligini oshirishda innovatsion texnologiyalardan foydalanish usullarini o'rganishdan iborat.

Bitiruv malakaviy ishining vazifalari:

-Kollejlarda iqtisodiy savodxonligini oshirishning zaruriyatini ko'rsatib o'tish;

-iqtisodiy fanlarni o'qitishda innovatsion texnologiyalardan foydalanish imkoniyatlarini o'rganish;

-iqtisodiy ta'limda o'qitish usuli va uning ta'lim texnologiyasidagi o'rnini nazariy jihatdan taxlil qilish;

-Uchko'prik transport va qurilish kolleji tashkiliy – pedagogik tasnifini o'rganish;

-kollejda innovatsion texnologiyalardan foydalanish darajasi taxlilini yoritish;

- Uchko'prik transport va qurilish kollejida talabalarining iqtisodiy savodxonligini oshirishda innovatsion texnologiyalardan foydalanishning takomillashtirish yo'llarini aniqlash;

- kollej ta'limida innovatsion texnologiyalar asosida «Iqtisodiyot asoslari» fanini o'qitish uslubiyotini takomillashtirish.

Bitiruv malakaviy ishi ob'ekti. “Rishton pedagogika va iqtisodiyot” kolleji ob'ekti sifatida tanlab olindi.

Bitiruv malakaviy ish tarkibi . Ushbu bitiruv malakaviy ish kirish, uchta bob, xulosa va takliflar, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan iborat.

I-bob. TA'LIM TIZIMIDA INTERAKTIV STRATEGIYANI SHAKLLANTIRISH

MEXANIZMINING NAZARIY ASOSLARI

1.1.O'quvchilarning kasbiy bilimlarini rivojlantirishning zaruriyati va ahamiyati

Hozirgi kunda talim jarayonida interaktiv metodlar, innovatsion texnologiyalar, pedagogik va axborot texnologiyalarini o'quv jarayonida qo'llashga bo'lgan qiziqish, etibor kundan-kunga kuchayib bormoqda, bunday bo'lishining sabablaridan biri, shu vaqtgacha ananaviy talimda o'quvchi talabalarni faqat tayyor bilimlarni egallashga o'rgatilgan bo'lsa, zamonaviy texnologiyalar ularni egallayotgan bilimlarini o'zlari qidirib topishlariga, mustaqil o'rganib, tahlil qilishlariga, hatto xulosalarni ham o'zlari keltirib chiqarishlariga o'rgatadi. O'qituvchi bu jarayonda shaxsni rivojlanishi, shakllanishi, bilim olishi va tarbiyalanishiga sharoit yaratadi va shu bilan bir qatorda boshqaruvchilik, yo'naltiruvchilik funksiyasini bajaradi. Talim jarayonida o'quvchi-talaba asosiy figuraga aylanadi. Shuning uchun oliy o'quv yurtlari va fakultetlarida malakali kasb egallarini tayyorlashda zamonaviy o'qitish metodlari- interaktiv metodlar, innovatsion texnologiyalarning o'рни va roli benihoya kattadir. Pedagogik texnologiya vapedagog mahoratiga oid bilim, tajriba va

interaktiv metodlar o'quvchitalabalar bilimli, etuk malakaga ega bo'lishlarini taminlaydi.

Innovatsiya (inglizcha *innovation*) – yangilik kiritish, yangilikdir. Innovatsion texnologiyalar pedagogik jarayon hamda o'qituvchi va talabafaoliyatiga yangilik, o'zgarishlar kiritish bo'lib, uni amalga oshirishda asosan interaktiv metodlardan to'liq foydalaniladi. Interaktiv metodlar – bu jamoabo'lib fikrlash deb yuritiladi, yani pedagogik tasir etish usullari bo'lib talim mazmunining tarkibiy qismi hisoblanadi. Bu metodlarning o'ziga xosligishundaki, ular faqat pedagog va o'quvchi-talabalarning birgalikda faoliyat ko'rsatishi orqali amalga oshiriladi.

Bunday pedagogik hamkorlik jarayoni o'ziga xos xususiyatlarga ega bo'lib, ularga quyidagilar kiradi:

- o'quvchi-talabaning dars davomida befarq bo'lmaslikka, mustaqil fikrlash, ijod etish va izlanishga majbur etishi;
- o'quvchi-talabalarni o'quv jarayonida bilimga bo'lgan qiziqishlarini doimiy ravishda bo'lishini taminlashi;
- o'quvchi-talabaning bilimga bo'lgan qiziqishini mustaqil ravishda har birmasalaga ijodiy yondoshgan holda kuchaytirishi;
- pedagog va o'quvchi-talabaning hamisha hamkorlikdagi faoliyatini tashkillanishi.

Pedagogik texnologiyaning eng asosiy negizi – bu o'qituvchi va o'quvchitalabaning belgilangan maqsaddan kafolatlangan natijaga hamkorlikda erishishlari uchun tanlagan texnologiyalariga bog'liq deb hisoblaymiz, yani o'qitish jarayonida, maqsad bo'yicha kafolatlangan natijaga erishishda qo'llaniladigan har bir talim texnologiyasi o'qituvchi va o'quvchi o'rtasida hamkorlik faoliyatini tashkil eta olsa, har ikkalasi ijobiy natijaga erisha olsa, o'quv jarayonida o'quvchi talabalar mustaqil fikrlay olsalar, ijodiy

ishlayolsalar, izlansalar, tahlil eta olsalar, o'zlari xulosa qila olsalar, o'zlariga, guruhga, guruh esa ularga baho bera olsa, o'qituvchi esa ularning bunday faoliyatlari uchun imkoniyat va sharoit yarata olsa, bizning fikrimizcha, ana shu, o'qitish jarayonining asosi hisoblanadi. Har bir dars, mavzu, o'quv predmetining o'ziga xos texnologiyasi bor, yani o'quv jarayonidagi pedagogik texnologiya –bu yakka tartibdagi jarayon bo'lib, u o'quvchi-talabaning ehtiyojidan kelibchiqqan holda bir maqsadga yo'naltirilgan, oldindan loyihalashtirilgan vakafolatlangan natija berishiga qaratilgan pedagogik jarayondir.

Iqtisodiy ta'limda yangicha iqtisodiy tafakkurni yoshlar ongiga singdirish masalasi qo'yilgan. Yangicha iqtisodiy tafakkur esa quyidagicha ifodalanadi: “Yangicha iqtisodiy tafakkur bizning nazarimizga ko'ra, uch asosga ega. Birinchidan insonning bozor sharoitidagi muhim bo'lgan shaxsiy fazilatlar. Ikkinchidan, texnika taraqqiyotining zamonaviy darajasi. Uchinchidan, davrimizga xos ijtimoiy jarayonlarning har bir mamlakat ijtimoiy-madaniy xususiyatlarining o'ziga xos nisbati va ijtimoiy turmushning globallashuvi bilan tavsiflanadi”.²

Respublika Prezidenti ta'lim-tarbiya soxasiga milliy didaktik nuqtai nazardan yondashib, uni quyidagicha ta'riflaydi: «Ta'lim O'zbekiston xalki ma'naviyatiga yaratuvchanlik faoliyatini baxsh etadi. O'sib kelayotgan avlodning barcha yaxshi imkoniyatlari unda namoyon bo'ladi, kasb-kori, mahorati uzluksiz takomillashadi, katta avlodlarning doimo tajribasi anglab olinadi va yosh avlodga o'tadi».³

² Qodirov Z.R. Yangicha iqtisodiy tafakkur va xalqaro munosabatlar // Xalqaro munosabatlar // 2008, №2, 84 b.

³ Islom Karimov O'zbekistonning o'z istiqlol va taraqqiyot yo'li. T., «O'zbekiston» 1992 yil 78-bet.

O'zbekistonda ta'limni islox qilish omillari yil O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining qabul qilingan kadrlar tayyorlashning milliy dasturida o'z ifodasini topgan. Bu omillarning eng muhimlari quyidagilardan iborat.

1. Respublikaning demokratik xuquqiy davlat va adolatli fuqarolik jamiyati qurish yo'lidan izchil borayotganligi.

2. Mamlakat iqtisodiyotida tub o'zgarishlarning amalga oshirilishi, xomashyodan tayyor maxsulot ishlab chiqarishga o'tish va eksport salohiyati kengayishi.

3. Davlat ijtimoiy siyosatida shaxs manfaati va ta'lim ustuvorligi qaror topganligi.

4. Milliy o'zlikni anglashning o'sib borishi, vatanparvarlik va o'z vatani uchun iftixor tuyg'usining shakllanganligi, boy milliy madaniyat tarixiy an'analarga va xalkimizning intellektual merosiga hurmat.

5. O'zbekistonning jahon hamjamiyatiga integratsiyasi, respublikaning jaxondagi mavkei va obru-e'tiborining mustaxkamlanib borayotganligi.

Kadrlar tayyorlash milliy dasturida, ko'p marotaba ilg'or pedagogik texnologiyalarni o'rganib, ularni o'quv muassasalarimizga olib kirish zarurligi uqtirilgan.

Keyingi yillar ichida yaratilgan, pedagogikaga bagishlangan adabiyotlarda «Pedagogik texnologiya», «Progressiv pedagogik texnologiya»⁴, «Yangi axborotlar texnologiyasi», «Innovatsion texnologiya» kabi tushunchalar uchrab turadi. Ammo, ularga hozirgi kungacha to'liq ta'rif berilmagan. Respublikamizning pedagog olim va amaliyotchilari ilmiy asoslangan hamda O'zbekistonning ijtimoiy – pedagogik sharoitiga moslashgan ta'lim texnologiyalarini yaratish va ularni ta'lim-tarbiya amaliyotida qo'llashga

⁴ Rapatsevich Ye.S. Pedagogika. Bol'shaya sovremennaya entsiklopediya. –Mn.: Sovremennoe slovo, 2005.

intilmokdalar. Bularning barchasi ta'lim-tarbiya sohasida islohotlar o'tkazishni asosiy masala qilib qo'ydi. Bu masalalarni yechishda «Ta'lim haqida»gi qonun va «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi» har taraflama javob beradi.

Kadrlar tayyorlash milliy dasturi o'z oldiga quyidagi maqsad va vazifalarni qo'ygan.

Mazkur dasturning maqsadi:

- 1) ta'lim sohasini tubdan islox qilish;
- 2) uni o'tmishdan qolgan mafkuraviy qarashlar va sarxatlardan to'la xalos etish;
- 3) rivojlangan demokratik davlatlar darajasida yuksak ma'naviy va axloqiy talablarga javob beruvchi yuqori malakali kadrlar tayyorlash milliy tizimini yaratishdir.

Ushbu maqsadni ro'yobga chiqarish quyidagi vazifalarni xal etishni nazarda tutadi.

1) ta'lim to'g'risidagi «O'zbekiston Respublikasi konuniga muvofiq ta'lim tizimini islox qilish davlat va nodavlat ta'lim muassasalari hamda kadrlar tayyorlash sohasida raqobat muxitini shakllantirish negizida ta'lim tizimini yagona o'quv ishlab chiqarish majmui sifatida izchil rivojlantirishni ta'minlash»;

2) ta'lim va kadrlar tayyorlash tizimini jamiyatda amalga oshirayotgan yangilanish, rivojlangan demokratik xuquqiy davlat qurilishi jarayonlariga moslash;

3) kadrlar tayyorlash tizimi muassasalarini yuqori malakali mutaxassislar bilan ta'minlash, pedagogik faoliyatning kunduzgi va ijtimoiy maqomini ko'tarish;

4) kadrlar tayyorlash tizimini hozirgi talablar doirasida qayta qurish;

5) ta'lim oluvchilarni ma'naviy axlokiy tarbiyalashning samarali uslublarini ishlab chiqish va joriy etish;

6) tizimni attestatsiya va akkreditatsiya qilishning yagona tizimini joriy qilish;

7) normativ moddiy - texnika axborot bazasini yaratish;

8) ta'lim, fan va ishlab chiqarishning integratsiyasini ta'minlash;

9) tizimga byudjetdan tashqari investitsiyalarni jalb qilish;

10) kadrlar tayyorlash soxasini o'zaro manfaatli xalqaro hamkorlikni rivojlantirish.

Yuqoridagi maqsad va vazifalardan kelib chiqib yangi ta'lim modelining tarkibiy qismlari quyidagilardan iborat.

1) shaxs-kadrlar tayyorlash tizimining bosh sub'ekti va ob'ekti, ta'lim soxasidagi xizmatlarning iste'molchisi va ularni amalga oshiruvchi;

2) davlat va jamiyat - ta'lim va kadrlar tayyorlash tizimining faoliyatini tartibga solish va nazorat qilishni amalga oshiruvchi kadrlar tayyorlash va ularni qabul qilib olishning kafillari;

3) uzluksiz ta'lim-malakali rakobatbardosh kadrlar tayyorlashning asosi. Ta'limning barcha turlari va standartlarini o'z ichiga oladi;

4) fan-yuqori malakali mutaxassislar tayyorlovchi va ulardan foydalanuvchi, ilgor pedagogik axborot va texnologiyalarni ishlab chiquvchi;

5) ishlab chiqarish-kadrlarga bo'lgan extiyojni, ular sifatiga ko'yilgan talablarni belgilovchi asosiy buyurtmachi. tizimni moliya va moddiy texnik baza bilan ta'minlash qatnashchisi.

1.2. Interaktiv usullardan foydalanish kasbiy bilimlarni rivojlantirishning muhim yo'nalishi sifatida

Tug'ma instinktlardan farqli o'laroq inson xatti-xarakatining ko'p qismi hayot tajribasida ortirilgan ko'nikmalardan iboratdir Kasbiy ko'nikmalar haqida gapirar ekanmiz kasbga tayyorgarlik bosqichi ishtirokchisining o'z funksiyasi va

rolini bajarishi uchun talab etiladigan usul, uslub, kasbiy madaniyatdagi odatlarni, stereotiplarni tushuniladi.

Ongli xarakatlar kasbiy malaka va ko'nikmalarning alohida shakli bo'lib, u kasbga tayyorgarlikga nisbatan ong xarakatining maqsadlari uchun xizmat qiladi.

Kasbiy bilimlar bilan ko'rollantirishning maqsadi ijtimoiy xarakterga ega bo'lishini ta'minlash, har xil ishtirokchilarni birlashtirish uchun turli usullar qo'llaniladi. Avvalo bu masalani turli dasturlar, sxemalar, tadbirlar, korxona ta'lim muassasasining o'zaro xamkorligi asosida yechadilar.

Kasbiy bilimlarga ega bo'lish va ko'nikmalarni shakllantirish uchun talabalarning mustaqil faolligi, qiziqishlari va ta'sir darajalari alohida ahamiyat kasb etadi.

Yuqorida ko'rsatilgan kasbiy bilimlarning uch shakli:

- instinktlar,
- ko'nikmalar va
- ongli xarakat-analitik maqsadda qo'llaniladi.

Zamonaviy ijtimoiy psixologiya va kasb psixologiyasining kasbiy madaniyatning ko'plab nazariy modullarida namoyon bo'ladi. Lekin barcha yo'nalishlar, tadqiqotlar strategiyalarga kiritiladi.

Birinchisi shaxsni ta'sir ob'ekti sifatida mashina vintchasi deb tasavvur qiladi. Ikkinchisi guruh tadqiqotchilari boshqa fikr, ya'ni inson faqat tashqi ta'sir ob'ekti bo'libgina qolmasdan, faoliyatning rivojlanishining maqsadi, uning faol sub'ekti deb hisoblaydilar. Bu esa o'z navbatida ijtimoiy psixologiya va kasb psixologiyasida shaxsni yoki guruhni kasbiy faoliyatga kirish mexanizmi, ob'ektiv qonuniyligi va faktorini ochish tarzida o'rganishni taqozo etadi. Ijtimoiy – siyosiy jarayonni individ tomonidan psixologik qabul qilishi milliy omilga xam bog'liq bo'ladi. Talabalarning kasbiy bilimlarini oshirish orqali ulardagi kasbiy

ko'nimalarni shakllantirida ularning qiziqishlarini alohida ahamiyatga ega ekanligi yuqorida e'tirof etilgan edi.

Kasbiy qiziqishlarning o'quvchilar faoliyatidagi o'rini yuqoridagi tahlillar asosida muhim ekanligiga ishonch hosil qildik. Kasbiy qiziqishlarni o'rganish psixologiyada juda ko'p ilmiy tadqiqotlar mavzusi sifatida o'rganilgan va amaliy tahlil qilingan ekan, biz o'z tadqiqotimizni ana shu tadqiqotlarning bugungi o'quvchilar faoliyatidagi kasbiy qiziqishlarni o'rganish orqali qiyosiy tahlil qilishga harakat qildik. Ma'lumki shaxsning barcha qobiliyatlari uning qiziqishlarining qay darajada shakllanganligiga bog'liq holda rivojlanadi. Shu nuqtai-nazardan o'quvchilar kasbiy qiziqishlari ularning ehtiyojlari, kelib chiqishi, kasblar haqida qanchalik ma'lumotlarga egaligi, kelajak orzulari bilan bog'lik bo'ladi

Maxsus ta'lim muassasalari pedagogik xodimlarining yangi, ilg'or pedagogik texnologiyalar, jumladan o'qitishning zamonaviy interfaol usullarini bilishi, uning uchun tegishli ma'lumotlarni o'rganishi, taxlil qilishi va umumlashtirishi, amaliyotda qo'llay olishi bugungi kunning ijtimoiy ahamiyat kasb etuvchi talabidir.

Pedagogika amaliyotiga qator tushunchalar kirib keldiki, ularning ma'nolari va joriylanish imkoniyatlari turlichadir. Amaliyotda "interfaol" (ta'sirning tashqariga yo'naltirilishi) ta'limda asosan bolalarning "Mening fikrim", "Men kimgadir ta'lim berishim mumkin" mazmunidagi yondashuvlari kuzatiladi. ya'ni ta'lim o'quvchilar jamoasi tomonidan tashkil etilib, ular bir-birlariga ta'sir ko'rsatadilar.

"Interfaol", ya'ni o'zaro ta'sir, o'zaro faollik, o'zaro hamkorlikka asoslangan ta'limda o'qituvchi va o'quvchilar, tarbiyachi va tarbiyalanuvchilar o'rtalarida o'zaro hamkorlik, hamfikrlilik, hamjihatlik yuzaga keladi. Bu hamkorlik o'quv materialini o'zlashtirish, nazariy va amaliy bilimlarni boyitishga xizmat qilib, shuningdek, muammoli vaziyatlarning ijobiy hal etilishini ta'minlabgina qolmay, ta'lim jarayonining ishtirokchilari o'rtasidagi o'zaro psixologik yaqinlik va birlikni ham

yuzaga keltiradi. O'qituvchi va o'quvchilarning birgalikdagi harakatlari, o'zaro ta'sirlari va hamkorliklari ta'lim jarayonida qo'lga kiritiluvchi barcha muvaffaqiyatlar uchun asos bo'lib xizmat qiladi.

"Interfaol" so'zi (ruscha "interaktiv") ingliz tilidan olingan bo'lib, «inter» - o'zaro, "akt" - faol harakat, faollik, ta'sirchanlik) o'zaro harakat, birgalikdagi faoliyat ma'nolarini anglatadi. O'zaro, birgalikdagi faoliyat jarayonida o'qituvchi-o'quvchi, o'quvchi-o'quvchi orasida ta'lim maqsadlariga erishish yo'lida tashkil etiluvchi hamkorlik kuzatiladi. Interfaol metodlar yordamida uyushtiriladigan mashg'ulotlarda o'quvchilar ma'lum darajada o'qituvchiga, guruh esa yagona, o'zaro hamkor, hamjihat jamoaga aylanadi.

O'qituvchi va o'quvchilar, shuningdek, o'quvchilar o'rtasidagi o'zaro hamkorlikni yuzaga kelishini ta'minlovchi ta'limiy faoliyat interfaol ta'lim deb yuritiladi. Interfaol ta'limda o'qituvchi va o'quvchilar, o'quvchilar o'rtasida yuzaga keluvchi o'zaro munosabat odatda u yoki bu muammoni qay tarzda hal etish, qarorlarni qabul qilish to'g'risidagi takliflarning ilgari surilishi va yakuniy qarorning qabul qilinishini ifodalaydigan munozara shaklida namoyon bo'ladi.

Interfaol metodlar turli masalalar va o'zaro munosabatlarning keng qatlamini o'z ichiga oladi. Biroq o'quv materialini samarali o'zlashtirish yo'llari qanday bo'lishidan qat'iy nazar o'quvchilarning shaxsiy tajribalari ta'limning asosiy manbasi bo'lib hisoblanadi.

Bugungi kunda ekstrafaol, faol va interfaol ta'lim jarayonlariga interfaol metodlarning tatbiq etilishi, ularning samarali kechishini ta'minlash bilan birga, zamonaviy ta'lim uchun o'ta muhim sanalgan o'zaro hamkorlik asosida ta'lim olish uchun ma'lum sharoitlarni vujudga keltiradi. Zamonaviy ta'lim jarayonida interfaol metodlar asosiy o'rin tutayotganligining sababi shuki, ular hozirgi kunda ta'lim samaradorligini ta'minlashning eng optimal yo'lidir.

Interfaol ta'lim muhitida o'qituvchi va o'quvchilar o'rtasidagi o'zaro sheriklik munosabatlarining teng huquqlilik asosiga qurilishi, "shu yerda va hozir" qayta aloqaning yuzaga kelganligi, ma'lum muammo bo'yicha ko'plab fikrlarning jamlanganligi umumiy aloqa muhitini hosil qiladi. Ilmiy bilimlarning muayyan tizimga asoslanganligi ta'lim jarayonida ham ularni muayyan tartibga yetkazib berilishini taqozo qiladi. Shunga ko'ra o'qituvchi bu jihatni e'tibordan qochirmasligi maqsadga muvofiqdir.

Interfaol ta'limning eng muhim jihati pedagogik jarayonning bola shaxsiga yo'naltirilganligidadir. Tashkil etilishi nuqtai-nazaridan interfaol texnologiya ta'lim ishtirokchilarining shaxsiy qiziqishlari asosida hosil qilinuvchi muloqot jarayonidir.

Interfaol metodlar: "Klaster", "6x6x6", "Fikrlarning shiddatli hujumi", "Aqliy hujum", "Fikriy hujum", "Yalpi fikriy hujum", "Qarorlar shajarasi" ("Qarorlar qabul qilish texnologiyasi"), "Qora quti", "Beshinchisi (oltinchisi, yettinchisi, ...) ortiqcha", "3x3" ("4x4", "5x5", ...), "Rasmlarni to'g'ri joylashtir", "Qizil va yashil kartochkalar bilan ishlash", "Videotopishmoq", "Yumaloqlangan qor o'yini", "Zakovatli zukko", "Qarama-karshi munosabat", "Bilaman. Bilishni xohlayman. Bilib oldim", "Zig-zag strategiyasi", "Ven diagrammasi", "Insert strategiyasi" va hokazolardan maxsus ta'lim amaliyotida samarali foydalanish mumkinligi ko'p yillik tajribalar asosida aniqlandi. Tajriba-sinov ishlari A.Avloniy nomidagi xalq ta'limi xodimlarini qayta tayyorlash va malakasini oshirish markaziy instituti maxsus ta'lim kafedrası, Andijon va Jizzax viloyatlari pedagog kadrlarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish institutlari hamda xalq ta'limi boshqarmalarining hamkorligida olib borildi. Tajriba-sinov ishlarida malaka oshirish kurslarining 157 nafar tinglovchilari va maxsus maktabgacha ta'lim muassasalari, maktablar, maktab-internatlarining 108 nafar tarbiyachi va pedagoglari ishtirok etdilar. Ular zamonaviy sharoitda ta'lim jarayonida faol va samarali qo'llanilayotgan interfaol metodlarning ko'plaridan xabardorligi va asosan, quyidagi interfaol metodlardan keng foydalanilayotganligi aniqlandi:

- rolli o'yinlar, quvnoq o'yinchoqlar, rasmlar o'rtasidagi bog'liqlik, refleksiya, ishbilarmonlik o'yinlari, debatlar, amaliy treninglar, dasturiy ta'lim, bahs-munozaralar, muammoli vaziyatlarni tahlil qilish ("Case study" - "Papkani o'rganish"), namoyish yoki himoya (prezintatsiya), videotahlil, intervyu va turli nomlar bilan nomlanuvchi interfaol metodlar.

1.3. Ineraktiv usullardan foydalanish samaradorligi

Interfaol metod-ta'lim jarayonida o'quvchilar hamda o'qituvchi o'rtasidagi faollikni oshirish orqali o'quvchilarning bilimlarni o'zlashtirishini faollashtirish, shaxsiy sifatlarini rivojlantirishga xizmat qiladi. Inter-faol metodlarni qo'llash dars samaradorligini oshirishga yordam beradi. Interfaol ta'limning asosiy mezonlari: norasmiy bahs-munozaralar- o'tkazish, o'quv materialini erkin bayon etish va ifodalash imkoniyati, ma'ruzalar soni kamligi, lekin seminarlar soni ko'pligi, o'quvchilar tashabbus ko'rsatishlariga imkoniyatlar yaratilishi, kichik guruh, katta guruh, sinf jamoasi bo'lib ishlash uchun topshiriqlar berish, yozma ishlar bajarish va boshqa metodlardan iborat bo'lib, ular ta'lim-tarbiyaviy ishlar samaradorligini oshi-rishda o'ziga xos ahamiyatga ega.

Interfaol mashg'ulot samaradorligi omillari

Hozirda ta'lim metodlarini takomillashtirish soha-sidagi asosiy yo'nalishlardan biri interfaol ta'lim va tarbiya usullarini joriy qilishdan iborat. Barcha fan o'qituvchilari dars mashg'ulotlari jarayonida interfaol usullardan borgan sari kengroq foydalanmoqdalar.

Interfaol usullarni qo'llash natijasida o'quvchilar-ning mustaqil fikrlash, tahlil qilish, xulosalar chiqarish, o'z fikrini bayon qilish, uni asoslagan holda himoya qila bilish, sog'lom muloqot, munozara, bahs olib borish ko'nikmalari shakllanib, rivojlanib boradi.

Bu masalada amerikalik psixolog va pedagog B.Blum bilish va emostional sohalardagi pedagogik maqsadlarning taksonomiyasini yaratgan. Uni Blum

taksonomiyasi deb nomlanadi. (Taksonomiya — borliqning murakkab tuzilgan soha-larini tasniflash va sistemalashtirish nazariyasi). U ta-fakkurni bilish qobiliyatlari rivojlanishiga muvofiq ravishdagi oltita darajaga ajratdi.

Unga ko'ra tafakkurning rivojlanishi bilish, tushu-nish, qo'llash, taxlil, umumlashtirish, 'baholash darajalarida bo'ladi. Shu har bir daraja quyidagi belgilar hamda har bir darajaga muvofiq fe'llar namunalari bilan ham ifodalanadi, jumladan:

Bilish-dastlabki tafakkur darajasi bo'lib, bunda o'quvchi atamalarni ayta oladi, aniq qoidalar, tushunchalar, faktlar va shu kabilarni biladi. Bu tafakkur darajasiga muvofiq fe'llar namunalari: qaytara bilish, mustah-kamlay olish, axborotni etkaza olish, aytib bera olish, yozish, ifodalay olish, farqlash, taniy olish, gapirib berish, takrorlash.

Tushunish darajasidagi tafakkurga ega bo'lganda esa, o'quvchi faktlar, qoidalar, sxema, jadvallarni tushunadi.

Interfaol usullar ko'p turli bo'lib ularning hammasi ham har qanday progressiv usullar kabi eng avvalo, o'qituvchidan mashg'ulot oldidan katta tayyorgarlik ko'rishni talab qiladi.

Shu mashg'ulotlarni tashkil qilishda interfaol dars-ning asosiy xususiyatlarini uning an'anaviy darsga nisbatan ayrim farqlarini ko'rib chiqish orqali yaqqolroq idrok etish mumkin. Shu maqsadda quyidagi jadvalni keltiramiz.

An'anaviy hamda interfaol dars orasidagi ayrim farqlar

	Asosiy tushunchalar	An'anaviy dars	Interfaol dars
1	Qo'llanish darajasi	Barcha mavzular bo'yicha ular uchun qulay bo'lgan dars shaklida qo'llaniladi.	Ayrim mavzular bo'yicha interfaol darsning qulay bo'lgan turlari shaklida

qo'llaniladi. Boshqa mavzular uchun an'anaviy dars qo'llaniladi

2	Dars Maqsadi	Dars mavzusi bo'yicha bilim, ko'nikma, malakalarni shakllantirish, mustahkamlash.	Dars mavzusi bo'yicha mustaqil fikrlash, xulosaga kelish, ularni bayon qilish, himoyalashga o'rgatish.
3	O'qituvchining vazifalari va ish usullari	Yangi mavzuni tushuntirish, mustaxkamlash, nazorat, topshiriqlar berish.	O'quvchilarning mustaqil ishlashlarini va taqdimotlarini tashkil qilish, boshqarish, nazorat, yakuniy xulosalarni asoslab berish.
4	Darsga tayyorgarlikka talablar	Dars rejasi, konspekt va didaktik vositalarni tayyorlash.	Interfaol dars ishlanmasi, mustaqil ishlar uchun topshiriqlar, tarqatma materiallar, boshqa zarur vositalarni tayyorlash.
5	O'quvchilar tayyorgarligiga talablar	Oldingi dars bo'yicha vazifalarni bajarib kelish.	Yangi dars mavzusi bo'yicha asosiy tushunchalarni va dastlabki ma'lumotlarni bilish.
6	O'quvchilarning Vazifalari va ish usullari	O'qituvchini tinglash va o'zlashtirish, berilgan topshiriqlarni bajarish.	O'qituvchi bergan topshiriqlarni bajarish bo'yicha mustaqil fikrlash, o'z fikr, xulosalarini boshqalarga solishtirish va yakuniy xulosaga kelish
7	Vaqt taqsimoti	Dars vaqtining ko'p qismi o'qituvchining yangi mavzuni tushuntirishi, tahlil qilishi, topshiriqlarni tushuntirishi, o'zlashtirishni nazorat qilishiga sarflanadi.	Dars vaqtining ko'p qismi o'quvchilarning mustaqil topshiriqlarni bajarishi, fikr almashishi, mushohada qilishi, o'z xulosalarini bayon qilishi va himoyalashiga sarflanadi.

- | | | | |
|----|---|--|--|
| 8 | Darsning modul va algoritmlari | Darsning modul va algoritmlardan har bir o'zini qo'llayotgan metodga muvofiq foydalanadi. | va Har bir dars oldindan Tayyorlangan modullar va algoritmlarga, loyihalarga muvofiq o'tkaziladi. |
| 9 | O'quvchilar dan talab qilnadigan faollik darajasi | O'qituvchi har tomonlama faol, o'quvchilar diqqatni jamlash, tushunish, fikrlash, topshiriqlarni bajarish bo'yicha faol. Muloqot shakllari: o'qituvchi-guruh; o'qituvchi-o'quvchi; o'quvchi-o'quvchi; o'quvchi-o'qituvchi; guruh-o'qituvchi; | O'qituvchi ham, o'quvchilar ham har tomonlama faol. hamkorlik, ham ijodkorlik shakllari: o'qituvchi-o'quvchi; o'quvchi-o'quvchi; o'quvchi-kichik guruh; kichik guruh-kichik guruh; o'quvchi-o'qituvchi; kichik guruh-o'qituvchi; guruh-o'qituvchi. |
| 10 | Bilimlarni o'zlashtirishning Asosiy usullari | Muloqot, muhokama, muzokara, bahs, munozara, mulohaza, tahlil, mushohada , mutolaa va boshqalar. | Muloqot, mutolaa, mushohada, muhokama, muzokara, bahs, munozara, mulohaza, tahlil va boshqalar. |
| 11 | Mashg'ulot shakllari | Ma'ruza, seminar, amaliy mashg'ulot, labora toriya mashg'uloti, davra suhbat i, bahs, munozara, konsultastiya va boshqalar. | Ma'ruza, guruh yoki juft bo'lib ishlash, taqdimotlar, bahs, munozara, davra suhbat, amaliy ishlar va boshqalar. |

12	Ko'tiladigan natija	Mavzu bo'yicha O'quvchilarning bilim, ko'nikma, malakalarini uzlashtirishlari.	Mavzu bo'yicha O'quvchilarning O'z fikr, xulosalarini shakllantirish, ularni mustaqil bilim olishga O'rgatish.
----	---------------------	--	--

1.3.1-jadval

Bu jadvalda hajm oshib ketmasligi uchun fikr juda qisqa bayon qilindi.

Jadvalda keltirilgan farqlar shu ikki mashg'ulot turining bir-biriga nisbatan afzal va kamchilik tomon-larini yaqqol ko'rsatib turibdi.

Interfaol ta'lim va tarbiya jarayoni ishtirokchilari

Interfaol mashg'ulotlar o'ziga xos tashkiliy tuzilishga ega bo'lib, uni tashkil qilish va olib borish bo'yicha faoliyat turlari alohida ajratilgan va har biri bo'yicha alohida vazifalar shaklida nomlar berilgan. Bunda bir mashg'ulot jarayonida shu mashg'ulotni olib boruvchi bir vaqtda ushbu turli vazifalarni bajarishi ko'zda to'tiladi. Shu bilan birga bir mashg'ulotni ikki yoki uch pedagog yoki yordamchilar birgalikda olib borishi ham qo'llaniladi. Ular bajaradigan vazifalariga ko'ra quyidagicha nomlanadilar:

1.Moderator — ta'lim mazmunini yaratish, modulla-rini ishlab chiqish.

2 Trener — o'quvchilarning ko'nikmalarini rivojlan-tiruvchi mashqlar o'tkazuvchi maxsus tayyorgarlikdan o'tgan mutaxassis.

3 Tyutor — masofadan o'qitish dasturlarini yaratish va bajarilishini ta'minlash.

4 Fasilitator — darsda ko'makchi, yo'naltiruvchi, jara-yonga javob bermaydi, xulosa chiqarmaydi.

5 Mentor — ustoz, o'rgatuvchi (yakka va guruhli tartibda).

6 Kouch — ta'lim oluvchilarning to'liq o'zlashtirish-lari uchun yordam ko'rsatuvchi repetitor, instruktor, trener. Amaliyot davomida amaliy mashg'ulotni, ish jarayonini nazo-rat qiluvchi, kuzatuvchi. (Kouching-

imtihonlarga yoki sport bo'yicha tayyorgarlik ko'rish).

7 Konsultant — maslahat berish, tushuntirish, qo'shimcha ma'lumot berish.

8. Lektor — nazariy ma'lumotlar bilan tanishtiruvchi.

9. Ekspert — kuzatish, tahlil, tekshirish, xulosa, tavsiya, taklif, mulohaza bildirish.

10 Innovator — yangiliklarni ta'lim mazmuni va mashg'ulotlar jarayoniga joriy qilish.

11 Kommunikator — o'zaro muloqotlarning sifati va samaradorligini oshirish, takomillashtirish.

12 O'qituvchi — mashg'ulot mavzusi bo'yicha ko'zda tu-tilgan mazmunni tushuntirish, o'quv jarayoniga rahbarlik.

13 Menejer — tashkiliy-pedagogik va iqtisodiy ma-salalarni hal etish.

14 Spekter — kuzatish, tahlil qilish va xulosalarni bayon qilish.

15 Assistent — mashg'ulot uchun tayyorlangan vosita-larni amalda qo'llashga tayyorlash, mashg'ulot ishtirokchi-lariga yordam ko'rsatib turish.

16 Kotib — zarur ma'lumotlarni yozib borish, tegishli hujjatlarni rasmiylashtirish, o'rnatilgan tartibda saq-lash.

17. Texnolog — pedagogik texnologiya mutaxassisi. Zamonaviy pedagogik texnologiyalar asosidagi dasturlarni ishlab chiqish va amalga oshirishni ta'minlash bilan bog'liq masalalarni hal etib boradi.

18 Metodist — ta'lim-tarbiya metodlari bo'yicha muta-xassis Dasturlarni ishlab chiqishda va amalga oshirish jarayonida metodik masalalarni hal etib boradi.

19 Koordinator — loyihalar, dasturlarni ishlab chi-qishga rahbarlik, ularni amalga oshirishni rejalashtirish, muvofiqlashtirish, tashkiliy va moliyaviy masalalarni hal etish.

20 O'quvchilar — ta'lim oluvchilar.

**II-bob.RISHTON PEDAGOGIKA VA IQTISODIYOT KASB HUNAR KOLLEJIDA
KASBIY BILIMLARNI BERISHDA QO'LLANILADIGAN INTERAKTIV USULLARDAN
FOYDALANISH HOLATINI BAHOLASH**

**2.1.Rishton pedagogika va iqtisodiyot kasb hunar kollejining boshqaruv
tuzilmasi va pedagogik salohiyatini baholash**

Kollej haqida umumiy ma'lumot

O'rta maxsus kasb-hunar ta'limi markazining 2009 yil 4-oktyabrdagi 219-sonli,Farg'ona viloyati xokimligining o'rta maxsus kasb-hunar ta'limi hududiy boshqarmasining 2009-yil 6-oktyabrdagi 132-sonli buyrug'i,hamda Farg'ona viloyati Rishton tuman hokimligining 2009-yil 26-oktyabrdagi 426-sonli qaroriga asosan yangi qurilish hisobiga Rishton pedagogika va iqtisodiyot kolleji tashkil etilgan. Kollejning manzili Rishton tumani, Zohidon qishloq fuqarolar yig'ini, Zohidon qishlog'i.

UMUMIY MA'LUMOTLAR

Telefon: 4522012

telefaks: E-mail: Rishton@mail.ru

Xisob - raqami: 20204000304441834012

Bankbo'limi: Rishton Agrobank MFO 00522 INN 20586667

Rishton pedagogika va iqtisodiyot kolleji bo'ysunadigan vazirlik: O'zbekiston Respublikas iOliy va O'rta maxsus ta'lim Vazirligi

Qaysi ta'lim muassasasi negizida tashkil etilgan : Yangitdan barpo etilgan.

Rishton pedagogika va iqtisodiyot kolleji Toshloq Iqtisodiyot Kolleji Direktori
___ Bekmirzayeva MuqaddasxonErgashevna


Ilmiy Darajasi___yo'q, Ilmiy Unvoni___ yo'q

Manzili___Rishton tumani Zohidon Q.F.Yi Zohidon

Telefoni___ +99891-4522012

Direktor o‘rinbosarlari:

- 1.Ma'naviy-ma'rifiy ishlar bo'yicha: Yusupov O'ktamjon To'xtasinovich
- 2.O'quv ishlari bo'yicha: Hakimov Ilhomjon
- 3.Xo'jalik ishlar bo'yicha:Sulaymonov Akmaljon
4. Bosh hisobchi:Valiyev O'ktamjon



1-chizma Amaliyot ob'ektining ichki tarkib tuzilmasi

Umumiy qoidalar

1. Rishton pedagogika va iqtisodiyot kolleji Farg'ona viloyati hokimligining o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi hududiy boshqarmasi tasarrufiga kiradi.

2. Rishton pedagogika va iqtisodiyot kolleji Davlat Ta'lim Standartlari doirasida o'rta maxsus kasb-hunar ta'limini beradigan milliy istiqlol g'oyasi ruhida komil insonni tarbiyalash, Vatanga muhabbat, insonparvarlik, buyuk

ajdodlar merosini hurmatlash ruhini singdira oladigan, o'quvchilarni kasb-hunarga moyilligi, mahorati va malakasini chuqur rivojlantirishni tanlagan, kasb-hunar bo'yicha bir yoki bir necha mutaxassislik olishini ta'minlaydigan o'quv yurti hisoblanadi. Ta'lim shakli kunduzgi. Kollej bitiruvchilariga Davlat tomonidan tasdiqlangan namunadagi diplom beriladi, unda o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limini yo'nalishlari va mutaxassisliklari (klassifikatori) tasniflagichiga muvofiq berilgan mutaxassisliklar hamda kasblar ko'rsatiladi. Diplomga o'zlashtirilgan fanlar nomi, soatlari hajmi va ular bo'yicha to'plangan reyting ballari, shuningdek bitiruvchining yakuniy davlat attestatsiyasidagi natijalari ko'rsatilgan qo'shimcha varaqa ilova qilinadi. Rishton pedagogika va iqtisodiyot kollejini tugatganlik to'g'risidagi diplom ta'limning keyingi bosqichlarida o'qishni davom ettirishga yoki egallagan mutaxassisligi bo'yicha mehnat faoliyati bilan shug'ullanishiga imkon beradi.

3. Kollej yuridik shaxs bo'lib, o'zining gerbli muhri, shtampi, bankdagi hisob raqami, davlat namunasidagi blankasi, peshlavha va boshqa rekvizitlarga ega bo'lib, o'z nomidan shartnomalar tuzish mulkiy huquqlarga ega bo'lish, majburiyatlar olish, sud, arbittiraj organlarida da'vogar va javobgar bo'lish majburiyatini oladi. Kollej ta'lim-tarbiya ishlarini O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, "Ta'lim to'g'risida"gi qonuni va "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi", kollej ustavi va vakolatli Davlat boshqaruv organlarining huquqiy-me'yoriy hujjatlari asosida amalga oshiradi.

4. Rishton pedagogika va iqtisodiyot kollejiga umumiy o'rta ta'lim maktablarining 9-sinfini bitirgan O'zbekiston Respublikasi hududida yashovchi yigit va qizlar qabul qilinadi. Kollejga qabul qilish Davlat Ta'limi Standartlari asosida yuqori tashkilotlar tomonidan ishlab chiqilgan qabul haqidagi qoida va yo'riqnomalar asosida amalga oshiriladi.

5. Rishton pedagogika va iqtisodiyot 3 yil.

6. Rishton pedagogika va iqtisodiyot kollejida o'rta maxsus ma'lumotlik ichiki mutaxassislar o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limining ta'limyo'nalishlari, mutaxassisliklar va kasblar tasniflagichi asosida tayyorlanadi.

Rishton pedagogika va iqtisodiyot kolleji 2009-2010 o'quv yilidan buyon faoliyat ko'rsatib kelmoqda. Kollej jami 700 o'ringa mo'ljallangan bo'lib, u yerda tumanning o'g'il-qizlari bilim olish imkoniyatiga egadirlar.

Ta'lim muassasida 98 nafaro'qituvchi faoliyat ko'rsatib, shundan 24 nafari umumta'lim fani o'qituvchilari, 74 nafari maxsus va kasbiy fan o'qituvchilari faoliyat olib bormoqda.

Kollejda Musiqa ta'limi yo'nalishi, Maktabdan va sinfdan tashqari tashqari tarbiyaviy ishlar yo'nalishi, Maktabgacha ta'lim muassasalari tarbiyachisi yo'nalishi va Buxgalteriya hisobi yo'nalishikabi kasbiy tayyorlov yo'nalishlari bo'yicha mutaxassislar tayyorlanib kelinmoqda.

Rishton pedagogika va iqtisodiyot kollejiga 2017-2018 o'quv yilida jami 607 nafar o'quvchi-yoshlar qabul qilingan bo'lib, shundan 548 nafari qizlar, 59 nafari esa o'g'il bolalar hisoblanadi.

Kasb-hunar kollejida 18 ta to'garak tashkil etilgan, shundan 10 tasi fan to'garagi, 6 tasi sport to'garagi, 2 tasi badiiy havaskorlik to'garaklari hisobanadi. Bulardan fan to'garaklarida 231 nafar, sport to'garaklarida 240 nafar, badiiy havaskorlik to'garaklarida 30 nafar o'quvchilar jami 501 nafar o'quvchilar to'garaklarga jalb qilingan.

Ta'lim muassasida 110 o'rinli oshxona, 250 o'rinli faollar zali, sport zall, yozgi sport maydonchasi, 120 o'rinli axborot-resurs markazi mavjud.

Axborot –resurs markazi 5907 ta kitob fondiga ega bo'lib, shundan 2276 tasi darsliklar, 2842 tasi o'quv-uslubiy qo'llanmalar, 551 tasi badiiy adabiyotlar, 200 tasi siyosiy adabiyotlar bo'yicha, 16 tasi ilmiy-ommabop adabiyotlar, 15 tasi

ma'ruza matnlari va 7 ta elektron qo'llanmalar mavjud. Axborot-resurs markazi 6 ta kompyuter, skaner, kserokopiya bilan ta'minlangan va internet tarmog'iga ulangan.

Kollejda ayni paytda 6 ta kafedra - Iqtisodiyot kafedrasi, Aniq fanlar kafedrasi, Ijtimoiy gumanitar fanlar kafedrasi, Chet tillari kafedrasi, Jismoniy tarbiya fanlar kafedrasi va o'quv ishlab chiqarish fanlar kafedrasi faoliyat olib bormoqda.

Kasb-hunar kollejining maqsad va vazifalari.

Rishton pedagogika va iqtisodiyot kasb hunarkollejining asosiy maqsadi yoshlarni mehnat va kasbkor ko'nikmalariga o'rgatish, ishchi xodimlar tayyorlash, ularning malakasini oshirish va qaytatayyorgarlikdan o'tkazish, shaxsning kasbiy ta'limiga bo'lgan ehtiyojini qondirishdan iborat. Rishton pedagogika va iqtisodiyotkollejida madaniyat, jamiyat hayotiga moslashgan, maxsus va umumta'lim dasturlarini ongli ravishda tanlab o'zlashtirib oladigan, o'zining oila, jamiyat va Davlat oldidagi burchini his qiladigan komil insonni tarbiyalash uchun ijtimoiy-iqtisodiy, huquqiy-tashkiliy, psixologik-pedagogik shart-sharoitlar yaratiladi.

Asosiy maqsadni amalga oshirish borasidagi vazifalar quyidagilardan iborat:

- ta'limning keyingi bosqichlarida o'qishni davom ettirish yoki egallagan mutaxassisligi va kasb-hunari bo'yicha mehnat faoliyati bilan shug'ullanish huquqini beradigan davlat ta'limi standartlari asosida o'qitish;
- tanlab olingan yo'nalish bo'yicha bir yoki bir necha mutaxassislikni egallash jarayonida o'quvchilarni kasbiy layoqat, ko'nikma va malakalarini rivojlantirish:
- fan va ishlab chiqarishning samarali integratsiyalashuvini ta'minlash:
- ta'lim jarayonini axborotlashtirish, zamonaviy texnologiyalar bilan ta'minlash, o'qitishni kompyuterlashtirish:

- vatanparvarlikni shakllantiruvchi milliy o'zlikni anglash, halqning milliy, madaniy, tarixiy an'analariga hurmat, vatan bilan g'ururlanish hissini tarbiyalash:
- sog'lom turmush tarzi me'yorlarini targ'ib qilish, ta'lim-tarbiya jarayonini sog'lomlashtirish uchun sharoit yaratish.

Amaliyot davrida Rishton pedagogika va iqtisodiyot kollejining uslubiyotchisi ish faoliyati bilan yaqindan tanishildi. Mutaxassislik bo'yicha uslubiy pedagogik kengash faoliyati bilan tanishib, kollejning o'quv-uslubiy ish rejalari tartibi, ketma ketligi va mazmun mohiyati haqida ma'lumotlarga ega bo'ldik. Kollejda o'qituvchining dars jarayonini tashkil etish uchun kerak bo'ladigan turli me'yoriy hujjatlar mavjud bo'lib, ular quyidagilar hisoblanadi:

1. Namunaviy ishchi dastur;
2. Ishchi o'quv dasturi;
3. Taqvimiy –mavzular rejasi;
4. Darsning texnologik xaritasi;
5. Nazariy dars rejasi.

Birinchi navbatda **namunaviy ishchi dastur** taqdim etiladi va shu namunaviy ishchi dastur asosida ishchi o'quv dasturi tuziladi.

Ishchi o'quv dasturida

- fanga ajratilgan soatlar miqdori va dars turlari bo'yicha taqsimoti;
- fanning nazariy mashg'ulot mavzulari;
- amaliy seminar mashg'ulotlarining namunaviy mavzulari;
- fanga oid mustaqil ish mavzulari;
- tavsiya etiladigan adabiyotlar ro'yxati

bayon etiladi.

Taqvimiy –mavzular rejasi bunda:

- mavzular ro'yxati;

- ajratilgan vaqt soat xisobida (2 soat)
- mashg'ulot turi (nazariy, amaliy)
- ta'lim metodlari (namoyish,mashq,yo'riqnoma berish, kitob bilan ishlash)
- ta'lim vositalari (darslik, video proektor,o'quv topshirig'i)
- fanlararo aloqadorligi;
- o'quvchilarni auditoriyadagi bajaradigan mustaqil ishi(test yechish,o'yinlar);
- foydalaniladigan manbalar(nizomlar ,buyruqlar)
- uyga vazifalar(topshiriqlar,mustaxkamlash, yodlash, tayyorlanish)
- guruhlar va dars o'tiladigan sanalar

bayon etiladi.

Darsning texnologik xaritasi bunda:

- dars mashg'ulotining bosqichlari;
- ajratilgan vaqt (necha minut)
- mashg'ulot mazmuni;
- ta'lim metodlari va shakllari (suxbat,savol-javob, aqliy xujum)
- ta'lim vositalari (kompyuter, tarqatma materiallar, ma'ruza matni)lar bayon etiladi.

Rishton pedagogika va iqtisodiyot kollejida kutubxona imkoniyatlari ham juda katta bo'lib, har bir talaba undan xohlagan paytida foydalanishi mumkin. Kutubxonada har bir o'quvchi darsdan so'ng mavjud kitoblardan unumli foydalanmoqda. Kollej kutubxonasi zamon talablariga javob beradi va har yili kutubxona moddiy texnik bazasi zamonaviy kitoblar bilan ta'minlanmoqda. Har bir yo'nalishlar bo'yicha, mutaxassisliklar bo'yicha darsliklar o'quvchilar ixtiyorida va ma'lum tartib qoidalar asosida beriladi.

Pedagogik kengash kasb-hunar kollejlarda tashkil etilib o'tkaziladigan uslubiy ishlarning muhimi bo'lishi bilan birga kollej faoliyatini boshqarishda o'ziga xos omil hisoblanadi.

Uslubiy kengash - odatda uslubiy kengash har oyda o'z yig'ilishlarini o'tkazishi rejalashtiriladi. Uslubiy kengash pedagogik kengashga bo'ysunadi va kasb-hunar kollejlarda olib borilayotgan uslubiy ishlarni muxokama etadi. Undao'qituvchilartomonidan yaratilgan uslubiy tavsiyalar, qo'llanmalar, ma'ruza matnlari, majmualar, dars ishlanmalari kabilarni amalga joriy etish masalalarini muhokama etib xulosalar beradi.

Uslubiy komissiyalar - har bir kafedra qoshida tashkil etiladi. Ularning asosiy vazifasi tayyorlov yo'nalishlari bo'yicha kichik mutaxassislar tayyorlashda davlat ta'lim standartlari asosida ta'lim shakllari, metodlari va vositalarini tanlashga oid uslubiy tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

Seminar-treninglarning maqsadi - o'qituvchilar, ishlab chiqarish ta'limi ustalari tomonidan tahsil oluvchilar shaxeini rivojlantirishga oid pedagogik-psixologik, fiziologik, gigienik, estetik va texnik bilim, kunikma va malakalarni egallashlariga amaliy yordam ko'rsatishdan iborat.

Ilmiy-amaliy konferensiyalar - ilmiy ish natijalari, ilg'or pedagogik va ishlab chiqarish tajribalarini ommaviy muhokama etib, ularni amalga joriy etishga oid qarorlar qabul qilish maqsadida o'tkaziladi.

2.2.Dars mashg'ulotini tashkil etish va o'tkazish holatini baholash

Respublikamiz hukumati tomonidan ta'limni ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotning ustuvor sohasi deb e'lon qilinishi, ijtimoiy hayotning barcha sohalarining demokratlashuvi, insonparvarlashuvi, "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi"ning qabul qilinishi ta'lim tizimining rivojlanishiga asos bo'ldi va ta'limda katta imkoniyatlar yaratdi.

Ijtimoiy voqelik ta'limni boshqarish muammolarini ko'rib chiqish va hal qilishni mustaqil yo'nalish sifatida ajratib olish, ta'lim-tarbiya jarayonini boshqarishning asoslangan usul, vositalarini ishlab chiqish va joriy qilish zaruratini belgilab berdi. Uning o'qitish, tarbiyalash va rivojlantirish o'rtasidagi tashkiliy-boshqaruv, axborot aloqalari; ijtimoiy jihatdan ahamiyatga molik shaxsni shakllantirishdagi yaxlit jarayonning tarkibiy qismlari sifatidagi ahamiyatini oshirdi.

Bugungi kunda erkin va mustaqil fikrlovchi, ijtimoiy-siyosiy hayotda ongli ravishda va faol ishtirok etishga qodir yosh avlodni shakllantirish "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi" ning asosiy ustuvor yo'nalishidir. Bu esa mamlakatning ijtimoiy-siyosiy hayotiga demokratik asoslarini joriy etishni, fuqarolik jamiyati va huquqiy davlat qurishni tezlashtirish imkonini beradi. Dastur ta'lim muassasalari mustaqilligini kengaytirish orqali ta'lim boshqaruvini demokratlashtirishni o'z ichiga oladi.

O'qish, o'qitish – inson faoliyatining boshqa sohalari singari - ijtimoiy foydali faoliyatdir. Iqtisodiy tuzumlar nima ishlab chiqarayotgani bilangina emas, balki qanday ishlab chiqarayotgani va qanaqa mehnat qurollari bilan ishlab chiqarayotganligi bilan biri ikkinchisidan farq qiladi, degan g'oya o'qish-o'qitish faoliyatiga ham taalluqlidir.

Pedagogika fanida ta'lim usullari rivojlanishiga shu nuqtai nazardan qarab, uni shartli ravishda quyidagi bosqichlarga ajratish mumkin:

1. Muallim "o'z qo'l kuchi" bilan o'qitish bosqichi, ya'ni o'quvchi uchun axborot manbai – o'qituvchi bo'ladi.
2. O'quv kitoblari, darsliklar yaratilgan va keng qo'llanilgan bosqich.
3. Audiovizual vositalar qo'llanilgan bosqich.
4. O'qitishni boshqarishda oddiy avtomatlashtirish vositalarini qo'llash bosqichi.

5. O'qitishni hozirgi zamonaviy EHM lar vositasida boshqarishni avtomatlashtirish bosqichi.

Insoniyatning rivojlanish davrlari almashganda pedagogik texnologiyalar butunlay yo'q bo'lib ketmaydi, balki pedagogik texnologiyalar keyingi davrlarga assotsiatsiya orqali fikran bog'lanadi, yangi sifatlar, xususiyatlarga ega bo'lib, kuchayadi va boyiydi. Ushbu jarayon borgan sari tezlashib boradi.

Pedagogik texnologiyaning asosiy elementlari quyidagilardan iborat:

Pedagogik muloqot texnologiyasida o'qituvchi (pedagog)ning o'quvchi-talabalar bilan muloqoti.

Muloqotning vazifalari:

- shaxsni tanish, axborot almashish;
- kelgusi pedagogik muloqotni modellashtirish va tahlil etish;
- muloqotdan olgan tasavvurlari;
- muloqot yuzasidan fikrlashi;
- pedagogik muloqotni tashkil etish texnikasi;
- ishga ijodiy yondoshishi.

Pedagogik talab texnologiyasi.

- "pedagogik talab" tushunchasi, uning o'ziga xos xususiyatlari;
- xulq-atvor va ijtimoiy madaniy qoidalarining namoyon bo'lishi;
- o'quvchi-talabaga bo'lgan hurmat va talab;
- pedagogik talabning psixologik tamoyillari va mezonlari.

Baholash texnologiyasi, pedagogik baho va belgilash.

- hatti-harakatlardan olgan taassurot, voqelikni, ob'ekt va sub'ektni qabul qilish;
- baho berish usullarini tanlash o'qituvchi (pedagog) o'z imkoniyatini tahlil etishi, ta'sir samradorligini oshirishi);
- pedagogik baholash texnologiyasi.

Axborotning ta'sir ko'rsatish texnologiyasi.

- nutqiy-axborot berish, “ratsional axborot berish” tushunchalari, demonstratsion va ko’rgazmali axborot olish vositalaridan biri sifatida;
- nutqiy ta’sir etish, suhbat, hamkorlik, tezis argument ko’rgazma obrazi;
- nutqiy ta’sir etish texnologiyasi;
- demonstratsion va ko’rgazmali vosita, etik, iqtisodiy, estetik, gigienik materiallar;
- qabul qilishning fiziologik va psixologik xususiyatlarini demonstratsiya qilish texnologiyasi.

Pedagogik materiallarni yaratish va uni yechish texnologiyasi.

- pedagogik konflikt tushunchasi – konflikt pedagogik texnologiya elementi sifatida, konflikt sub’ektlari orasida qarama-qarshiliklar tavsifi sifatida, bo’sh va mazmunli konflikt;
- holat tahlili (voqeani aniqlash);
- konflikt;
- konfliktning xilma-xilligi (norozilik, qarshi chiqish);
- konfliktni yechish shakllari (yumor, hazil, toifa).

Zamonaviy pedagogik texnologiyaning qo’shimcha elementlari:

1. Psixologik muhit yaratish texnologiyasi.
2. Guruh faoliyatini tashkil etish texnologiyasi.
3. Muvaffaqiyat va muvaffaqiyatsiz holatlarni tashkil etish texnologiyasi.
4. O’quvchining xatti-harakatiga pedagogik reaksiya qilish texnologiyasi.
5. Xulqi va odobi yomon o’quvchi-talabalar bilan ishlash texnologiyasi.
6. Etik himoya texnologiyasi.
7. Muammoli vaziyatlar yaratish texnologiyasi.
8. Pedagogik vosita texnologiyasi.
9. Pedagogik improvizatsiya texnologiyasi.

Biz bitiruv malakaviy amaliyotimiz davomida kollejdagi iqtisodiy fanlarni o'qitilishida pedagogik texnologiyalarning qo'llanilishini kuzatdik. SHu asosida quyidagi ma'lumotlarni taxlil qilib o'rgandik. Quyida «Marketing» fanidan olib borilgan 2 soatlik ma'ruzani dars jarayonini loyixasini ishlab chikdik. Shu bilan bir qatorda dars jarayonini tashkil etilishini ham kuzatdik.

Rishton pedagogika va iqtisodiyot kollejida 6-16 guruhida fan o'qituvchisi Sanjar Samadovning dars mashg'ulotida qatnashdik. Dars Marketing fanidan bo'lganligi va fan o'qituvchising dars o'tish mahoratini atroflicha taxlil qildik. O'qituvchi dars mashg'ulotini hozirgi zamonamizning eng ilg'or metodlaridan foydalangan holda olip bordi.

Dastaval o'qituvchi o'quvchilar bilan salomlashdi. Keyin besh daqiqa (texnalagik xaritaga asosan) davomida o'tilgan mavzu bo'yicha talabalar bilan qisqa savol javoblar o'tkizildi, ya'ni blts-so'rov usulidan unumli foydalandi. Ma'lum bo'lishicha bu usuldan foydalanilganda o'quvchililarning dars jarayoniga tayyorgarlik darajasini qisqa vaqt ichida aniqlash mumkun. Shundan so'ng fan o'qituvchisi yangi o'tiladigan mavzu bilan o'quvchi talabalarni tanishtirdi. Yangi fan mavzusi esa "Tovar birjalari va brokkerlik idoralari" ekanligi o'qib eshittirildi. Bu o'rinda shuni aytib o'tish joizki hozirgi kunda brokkerlik soxasi umuman brokkerlik kasbi ancha rivojlanayotganligi bois talabalar orasida bu kasbga qiziqishi borligi aniqlandi. Dars mashg'uloti qay darajada tashkil etilganligini hisobga olgan holda ko'tarinki ruxda olip borildi, o'qituvchi ushbu mavzu bo'yicha o'zi tayyorlab kelgan tarqatma materiallar va ko'rgazmali qurollardan mavzuni yoritish davomida unumli foydalandi. Darsni yanada jonliroq bo'lishi uchun turli hil ta'lim texnologiyalardan, ta'lim berish usullaridan keng foydalanildi. Masalan "aqliy xujum, BBB" muzyorar metodlari qo'llanildi.

Aqliy hujum - g'oyalarni generatsiya (ishlab chiqish) qilish metodidir. «Aqliy hujum» metodi biror muammoni yechishda talabalar tomonidan bildirilgan erkin fikr va mulohazalarni to'plab, ular orqali ma'lum bir yechimga kelinadigan eng samarali metoddir. Aqliy hujum metodining yozma va og'zaki shakllari mavjud. Og'zaki shaklida o'qituvchi tomonidan berilgan savolga talabalarning har biri o'z fikrini og'zaki bildiradi. Talabalarda o'z javoblarini aniq va qisqa tarzda bayon etadilar. Yozma shaklida esa berilgan savolga talabalar o'z javoblarini qog'oz kartochkalarga qisqa va barchaga ko'rinarli tarzda yozadilar. Javoblar doskaga (magnitlar yordamida) yoki «pinbord» doskasiga (ignalar yordamida) mahkamlanadi. «Aqliy xujum» metodining yozma shaklida javoblarni ma'lum belgilar bo'yicha guruhlab chiqish imkoniyati mavjuddir. Ushbu metod to'g'ri va ijobiy qo'llanilganda shaxsni erkin, ijodiy va nostandart fikrlashga o'rgatadi.

Aqliy hujum metodining foydali jihati shu bo'ldiki: guruhda ikkita talaba maruza mashg'ulotiga, umuman dars mashg'ulotiga etiborsizlik bilan qarashgan edi, ammo pedagog keltirilgan usuldan unumli foydalangan holdan ularni dars jarayoniga jalb qila oldi. Bu uning pedagogik mahorati boligini tasdiqladi.

«Muzyorar» usuli dars o'tilayotgan guruhda o'quvchilar befarqligining oldini olishga va dars jarayonida hosil bo'lgan charchoqni yoki talabalarga ruhiy bosim (ta'sir) bo'lishining oldini olishga mo'ljallangan ma'lum bir xildagi faol (aktiv) faoliyat turlaridir. Demak, ular sinfda yuzaga kelgan «muzlash» ning oldini olish va agarda bunday muzlash hosil bo'lgan bo'lsa, uni «yorib yoki eritib yuborish» uchun ishlatilishi mumkin. Ko'chilik o'qituvchilar «muzyorar»larni ta'limning boshlang'ich

bosqichidagina ishlatadilar, lekin uni xuddi shunday muvaffaqiyat bilan dars davomida, o'quvchilar bilan yoki o'quvchilararo muloqot jarayonida ma'lum bir sabablarga ko'ra qiyinlashish yuzaga kelgan holda ham ishlatish mumkin. Masalan, o'quvchilar o'z millatlari, ish joylari, jinsiga bog'liq ravishda doimiy guruhlar tuzib olganlarida, ularni maqsadga muvofiq ravishda o'zgartirish uchun ham «muzyorar»ni muvaffaqiyatli qo'llanilishi mumkin. Hamma joyda kamchilik bo'lganligi singari maruza o'qituvchisini darsida ham ayrim kamchiliklar kuzatildi.

Masalan talabar ushbu fan yuzasidan hammalarida ham darsliklarni yetishmovchiligi, talabalarni kech qolganlariga nisbatan qattiqroq choralarni ko'rilmaganligi va boshqa turli xil kamchiliklarni keltirishimiz mumkin.

Taxlil jarayonida ijobiy tomonlariga quyidagilarni kiritishimiz mumkun:

Darsda faol qatnashgan talabalarga nisbatan rag'batlantirish tariqasida ko'k kartochkalar tarqatildi va aytib o'tildiki 5-6ta shunaqa kartochkalarni to'plagan talabalar oraliq nazoratdan ozod bo'lishlari haqida yana bir marotaba eslatib o'tildi. Talabalarga mavzu yuzasidan uyga vazifa sifatida qiziqarli savollar tarqatildi.

O'qituvchi shu dars orqali maruzada qatnashgan talabalarni barchalarini temperamentini aniqlash va savol javoblar o'tazish orqali ularni qanday mashg'ulotga qiziqishlari haqida ham o'zi uchun zarur ma'lumotlarga ega bo'ldi.

O'quvchi shaxsini o'rganish

2.2.1 - jadval

№	O'quvchining ismi sharifi	Temperament	Xarakter	Qobiliyat
1	Tur'gunov I	Xollerik	Og'ir vazmin	Futbol o'ynashga
2	To'ychiyev A	Sangvinik	Aktiv inson	Deyarli barcha fanlarga
3	Qodirov R	Xolerik	Og'ir vazmin	Kulolchilikka

5	Bxriddinov S	Flegmatik	Og'ir vazmin	Musiqa eshitishga
6	Obobakirova SH	Sangvinik	Yengil xarakterli,jaxldor	Xamshiralikka
7	Usmonov F	Melanxolik	Bosiq, uyalchan	Suzishga
8	Dadajonov G	Flegmatik	Jaxldor	Kino ko'rishga
9	G'aniyeva. N	Xolerik	Urushqoq	Chevarchillika
10	Yunusaliyeva. G	melanxolik	Bosiq, o'zgacha xarakterli	Rassom
11	Salomov s	sangvinik	Jizzaki,	Palov tayyorlashga
12	Raximova D	flegmatik	Og'ir vazmin	CHET tiliga
13	Isaqjonov B	melanxolik	Esli, yangiliklarni xush ko'rmaydigan	Jismoniy mehnatga
14	Xaydarova. U	flegmatik	Esli kop o'rtoqlari bilan yaxshi munosabbat o'rnatgan	Futbol tomosha qilishga
15	Qayumov J	sangvinik	Yengil xarakterli,jaxldor	Video o'yinlarga
16	Qorajonov H	flegmatik	Asabi tarang	Bug'alteryasi hisobi
17	Nabiyeva. L	xolerik	O'jar, o'z fikrini maqullaydigan	Soch turmaklashga
18	Oripov. M	melanxolik	Bosiq	Ijtimoiy fanlarga
19	Tojaliyev. K	flegmatik	Boshqalarni fikrini xurmat qiladiga , vazmin, esli	Buxgalteriya hisobi
20	SAFAROV R	sangvinik	Qaysar, bir joyda turolmadigan	Duradgorlikka

Mavzu:Tovar birjalari va brokerlik idoralari

2.2.2-jadval

O'quv amaliyot mashg'ulotining o'qitish texnologiyasi modeli

Vaqt: 4soat.	O'quvchilar soni: 30 nafar.
O'quv mashg'ulotining shakli va turi.	Amaliy (o'quv amaliyoti)

O'quv mashg'uloti rejasi, tuzilishi.	1. O'zbekistonda tovar birjalari faoliyati. 2. Birja savdolari o'tkazish tartibi. 3. Brokerlik faoliyati va uning xuquqiy asoslari. 4. Birja savdolari o'tkazish tartibi ni o'rganish
O'quv mashg'uloti maqsadi: Tovar birjalari va brokerlik idoralari to'g'risida ma'lumot berish va ularda mavzu bo'yicha nazariy bilimlarni mustahkamlash, ko'nikma va malakalarni shakllantirish	
Pedagogik vazifalar: O'zbekistonda tovar birjalari faoliyati bilan tanishtirish . Birja savdolari o'tkazish tartibini o'rgatish. .Brokerlik faoliyati va uning xuquqiy asoslari bilan tanishtirish. Birja savdolari o'tkazish tartibini o'rgatish; amaliy ish uchun yo'riqnoma berish; O'quvchilarni baholash, qo'yilgan xato-kamchiliklarni ko'rsatish	O'quv faoliyati natijalari: O'quvchilar O'zbekistonda tovar birjalari faoliyati bilan tanishadilar .Birja savdolari o'tkazish tartibini o'rganadilar .Brokerlik faoliyati va uning xuquqiy asoslarini o'rganadilar. Birja savdolari o'tkazish tartibi ni o'rganish; Mavzu bo'yicha mashqlarni mustaqil bajaradilar; Hatolar ustida ishlaydilar.
O'qitish usullari.	Tushuntirish, ko'rsatish, yo'riqnoma berish, mashq.
O'quv faoliyatini tashkil etish shakli.	Ommaviy, jamoaviy, guruh, yakka tartibda, juftlikda.
O'qitish vositalari.	Kerakli jihoz va asboblarni, ko'rgazmali qurollar, proektor, kodoskop, stendlar, slaydlar.
O'qitish sharoiti.	Jihozlangan o'quv xonasi.
Qayta aloqaning usul va vositalari.	Nazorat, bajarilgan ishlarni tekshirish, og'zaki savol - javob va boshqalar.

O'quv amaliyot mashg'ulotining texnologik xaritasi

Mashg'ulot bosqichlari va vaqti	Faoliyat mazmuni	
	O'qituvchi	O'quvchi

1-bosqich. O'quv mashg'ulotiga kirish 15 .daqiq	Tashkiliy qism: 1. O'quvchilarning davomatini tekshiradi; 2.O'quvchilarning mashg'ulotga tayyorgarligini nazorat qiladi. Maqsad va vazifani belgilanishi: 3. Amaliy mashg'ulot nomi, rejasi, maqsad va kutilayotgan natijalar bilan tanishtiradi 4. Amaliy mashg'ulotning baholash mezonlari bilan tanishtiradi. 5.Havfsizlik texnikaci qoidalariga amal qilishni eslatadi.	Mashg'ulotga tayyorgarlik ko'radilar Amaliyotga havf-sizlik texnikaci, sanitariya va gigiena talablariga rioya qilgan holda maxsus kiyimda keladi. Havfsizlik texnikaci jurnaliga imzo qo'yadilar. Tinglaydilar.
2-bosqich. Asosiy 150 daqiqa	Kirish instruktaj (30. daq) O'quvchilarning bilimni faollashtirish: 1. O'quvchilarning bilimlarini aniqlash va faollashtirish maqsadida savol – javob, (aqliy hujum va boshqa.)o'tqazadi.O'quvchilarning bilimlarini umumlashtiradi va yangi mavzu bayoniga o'tadi. Yangi mazu bayoni: 2 O'quv amaliyoti mavzusi bo'yicha umumiy ma'lumot beradi, ish jarayonini tushuntiradi; Joriy instruktaj (10daq.). Yangi mavzu bo'yicha amaliy mashq bajarish: 3. O'quvchilarga topshiriqlar taqsimlab amaliy ish yuzasidan yo'riqnomali texnologik xarita (1-ilova) hamda mustaqil ish bajarish uchun material tarqatadi va ko'rsatmalar beradi. 4. Mustaqil ishlarni bajarilishini maqsadli aylanish vaqtida nazorat qiladi va ish jarayonida o'quvchilar tomonidan qo'ygan xatolarni ko'rsatadi. Yakuniy instruktaj (20 daq.): 5. O'quvchilarni faoliyatini baholash mezonlari asosida baholaydi 6. Mashg'ulot tugaganidan so'ng ish joylarini talab darajasiga keltiradi. Tayyorlangan xisobotlarni qabul qiladi.	Savollarga javob beradi. Tinglaydilar, chizadilar, yozib oladilar. O'quvchilar o'z ish joylariga turadilar, mashg'ulot rahbari ko'rsatmalari va yo'riqli texnologik xaritaga rioya qilgan holda bajaradilar. Xatolarni to'g'rilaydilar. Foydalanilgan jihozlarni mashg'ulot rahbariga topshiradilar. Ish joyini tozalaydilar.
3-bosqich. Yakuniy (15.daq.)	Yakunlash: 1. O'quvchilarni amaliy mashg'ulot bo'yicha baholarini e'lon qiladi 2. Kelgusi kasbiy faoliyatlarida amaliyotda bajargan ishlarining ahamiyati va muhimligiga o'quvchilar e'tiborini qaratadi; 3. Kelgusi mashg'ulot mavzusi bilan tanishtirib uyga vazifa beradi	Tinglaydilar. Topshiriqni yozib oladilar.

--	--	--

2.3 Kollejning moddiy texnik bazasini baholash

Kasb-hunar kollejida 2017-2018 o‘quv yilida 607 nafar o‘quvchi- yoshlar tahsil oladi, shundan 548 qizlar, 59 o‘g‘il bolalardan iborat.

2-bosqich 290 nafar talaba shundan 24 nafar o‘g‘il bolalar va 266 nafar qizlar

3-bosqich 317 nafar talaba shundan 35 nafar o‘g‘il bolalar va 282 nafar qizlar tahsil olmoqdalar

Rishton pedagogika va iqtisodiyot kolleji talabalarining 2017-2018 o‘quv yili uchun mutaxassisliklari bo‘yicha kontingenti

2.3.1-jadval

O‘quv yili	Tayyorlov yo‘nalishi	Klassifikator bo‘yicha kodlar	Kasblar bo‘yicha o‘quvchilar soni		Sh jumladan kurs bo‘yicha					
					1-kurs		2 -kurs		3 -kurs	
			O‘g‘il	qiz	O‘gil	qiz	O‘g‘il	qiz	O‘gil	qiz
2017-2018	Musiqqa ta‘limi	3111101	24	93			12	42	12	51
	Maktabgacha ta‘lim muassasalari tarbiyachisi	3111801		291				149		142
	Maktabdan tashqari tarbiyaviy ishlar	3111702		81				27		54
	Buxgalteriya hisobi	3230901	35	83			12	48	23	35
JAMI			59	548			24	266	35	282

Kasb-hunar kollejida 24 ta to‘garak tashkil etilgan, shundan 10 tasi fan to‘garagi, 6 tasi sport to‘garagi, 6 tasi kasbiy 2 tasi badiiy havoskorlik to‘garagi, fan to‘garaklarida 239 nafar, sport to‘garaklarida 238 nafar, kasbiy to‘garaklarda

111 nafar, badiiy havaskorlik to'garaklarida 19 nafar o'quvchilar jami 607 nafar o'quvchilar to'garaklarga jalb qilingan.

Ta'lim muassasida 150 o'rinli oshxona, 300 o'rinli faollar zali, sport zall, yozgi sport maydonchasi, 150 o'rinli axborot-resurs markazi mavjud.

Axborot –resurs markazi darsliklar 41 nomda 2276 ta,o'quv uslubiy qo'llanmalar 84 nomda 2842ta,siyosiy adabiyotlar 18nomda 200ta,badiy adabiyotlar 112nomda 551ta,ilmiy ommabop adabiyotlar7 nomda 16ta,ma'ruza matnlari 15nomda 15ta,elektron qo'llanmalar7nomda 7ta jami adabiyotlar 284 nomda 2907tani tashkil etadi. shuningdek skaner, kseriokopiya bilan ta'minlangan internet tarmog'iga ulangan. Umum ta'lim fanlariga oid 21nomda 3647ta darslik,maxsus,umumkasbiy fanlar46nomda 1896ta darsliklar bilan taminlangan.

O'quv yurtining kutubxona tizimi haqida ma'lumot

2.3.2- jadval

T/p	Adabiyotlar turi	Necha	Жами сопи	Kutbxona fondining holati			
				Tillar bo'vicha			O'tgan o'quv
				O'zbek	Rus	O'raqalpoq	
1	Darsliklar	41	2276	2263	13	-	2124
2	O'quv –uslubiy qo'llanmalar	84	2842	1853	91	-	2482
3	Sivosiy adabiyotlar	18	200	184	16	-	100
4	Badiy adabiyotlar	112	551	500	1	-	74
5	Ilmiy- ommabop	7	16	16		-	13
6	Maruza matnlari	15	15	14	1	-	13
7	Elektron qo'llanmalar	7	7	7		-	7
JAMI		284	5907	4837	1	-	4813

Kutbxona tizimiga alohida etibor qaratadiga bo'lsak muassasa adabiyotlarining salmog'i ancha o'skanligiga duch kelishimiz mumkin.Buni yuqorida keltirilgan raqamlar misolida ham ko'rishimiz mumkin.O'tkan yilda kutbxonada umumiy 4813ta kitob mavjud bolgan bo'lsa bu o'quv yilida yani 2017-2018 o'quv yilida uning soni biroz o'skanligiga 5907 tani tashkil

etayotganligini ko'rishimiz mumkin. Bu o'sishlarni quyidagilarda ko'rishimiz mumkin:

1. O'quv –uslibiy qo'llanmalar 2842ta bu yilda 2482ta o'tkan yilda
2. Siyosiy adabiyotlar 200ta bu yilda 100ta o'tkan yilda
3. Badiy adabiyotlar 551ta bu yilda 74 ta o'tkan yilda
4. Ilmiy- ommabop 16ta bu yilda 13ta o'tkan yilda
5. Maruza matnlari 14 ta bu yilda 13 ta o'tkan yilda

Kollej kutbxonasida unumtalim darsliklari ham mavjud ular 21nomda jami 3647 ta ekanligini. Maxsus, umumkasbiy fan darsliklari 46 nomda 1896ta ekanligini ko'rishimiz mumkin.

Hozirgi kunda elektron adabiyotlarning soni ancha rivojlanganigiga qaramasdan ta'lim muassasasida badiy adabiyotlarning sonini juda ham o'sganligiga guvoh bo'lishimiz mumkun. Kollejdagi adabiyotlarning o'sishining asosiy sabablari turli hil homiyalar tomonidan taqdim etilgan sovg'alar, bitiruv yilining ohirida bitiruvchilarning har biri tomonidan berilgan kitoplar, har hil ko'rik tanlovlarda olingan adabiyotlar hisobiga ekanligini ko'rishimiz mumkin.

Ta'lim muassasasi yotoqhona bilan ham taminlangan 3qavatli yotoqhonada uzoqdan keladigan talabalar uchun barcha sharoitlar yaratilgan jami 540 o'ringa mo'ljallangan bolip 50ta talaba istiqomat qiladi.

Kollejda ayni paytda 6 ta kafedra –Iqtisodiyot kafedrasi, Aniq fanlar kafedrasi, Ijtimoiy gumanitar fanlar kafedrasi, Maxsus fanlar kafedrasi, Chet tillari kafedrasi, Jismoniy tarbiya fanlar kafedrasi, O'quv ishlab chikarish fanlar kafedrasi faoliyat olib bormoqda

Fan xonalari o'quv labarato'riyalari va ustaxonalarning jihozlanishi haqida ma'lumot

2.3.3-jadval

T.p.	Fan xonalari,o'quv labarato'riyalari va ustaxonalar va ulardagi jihozlar(jihozlar majmuasi) nomi	Xonalar soni	Jihozlar (jihozlar majmuasi) soni	Ishlatilish muddati bo'yicha		
				5 yilgacha	10 yilgacha	10 yildan ortiq
1	Ona tili	2	2			
2	Tarix	1	1			
3	Rus(o'zbek)tili	2	2			
4	Xorijiy til	1	1			
5	CHQBT	1	1			
6	Kimyo	1	1			
7	Biologiya	1	1			
8	Fizika	1	1			
9	Informatika	2	2			
10	geografiya	1	1			
11	Musiq	5	5			
12	Tasviriy san'at	1	1			
13	Buxgalteriya xisobi	1	1			
14	Menejment	1	1			
15	Математика	2	2			
16	Pedagogika	1	1			
17	Psixologiya	1	1			
18	Moliva	1	1			
19	Milliy istiqlol g'oyasi	2	2			
20	Huquqshunoslik	1	1			
21	Iqtisod	1	1			
22	Ingliz tili	2	2			
23	Kimyo	1	1			
24	Bialogiya	1	1			
25	Fizika	1	1			

III-bob. KOLLEJDA KASBIY BILIMLARNI

RIVOJLANTIRISHDA INTERAKTIV STRATEGIYANI

SHAKLLANTIRISHNI TAKOMILLASHTIRISH

3.1.Mutahassislik fanlari bo'yicha dars mashg'ulotlarini tashkil etish texnologiyasini takomillashtirish

Hozirgi kunda ta'lim jarayonida pedagogik dolzarb masalalarga fan, texnika, ilgor texnologiyalar yutuklaridan foydalanish asosida shaxsni

tarbiyalash, o'qitish va rivojlantirish maqsadlari, mazmuni, metodlari, vositalari va tashkiliy shakllarini ilmiy ta'minlash kiradi.

SHu ma'noda tashkil etilayotgan ma'ruza va seminar darslarini o'tkazish va ular uchun zamonaviy dars ishlanmalarini yaratishga e'tibor berila boshlandi. Bizning olib borgan ilmiy tadqiqotlarimiz natijasi o'laroq kollejdagi "Bank ishi" yo'nalishi 3 – bosqich 6-16 guruh talabalariga "Mikroiqtisodiyot" fanidan ikki soatlik ma'ruza darsini innovatsion texnologiyalar asosida o'tkazish uslubiyotini quyidagicha tuzish maqsadga muvofiq deb o'ylaymiz. Ya'ni, biz "Iqtisodiy o'sish va uning omillari" mavzusini yangi pedagogik texnologiyalardan: "Aniqlashtirilgan maqsadli differentsial texnologiya", "Klaster" texnologiyasi, "Intervyu" kabi texnologiyalardan foydalandik. Dars o'tishda asosiy e'tibor dars o'tish metodikasiga qaratildi.

Mavzu: Iqtisodiy o'sish va uning omillari

Darsning maqsadi: Talabalarga iqtisodiy usish, uning turlari va omillari kabi iqtisodiy tushunchalar xakida ma'lumot berish va ularda iqtisodiy bilim, ko'nikma va malakalarni shakllantirish.

Darsning borishi:

Tashkiliy qism: talabalar bilan salomlashib, auditoriyaning umumiy xolatini, talabalarning darsga tayyorgarligini nazorat qilish, yo'qlama qilish.

Asosiy kism: Avvalgi darslarda utilgan mavzularni takrorlash va mustaxkamlash hamda yangi mavzuni bayon etishga asos tayyorlash maqsadida tegishli savollar bilan savollar bilan talabalarga murojaat qilinadi. So'ngra yangi mavzu bayoni quyidagi reja asosida tashkil etiladi: (bu reja aniklashtirilgan maksadli differentsial texnologiyaning "S" standart dasturini tashkil etadi).

1. Iqtisodiy o'sish va uning iqtisodiyot uchun ahamiyati.
2. Iqtisodiy o'sish omillari.
3. Iqtisodiy o'sish turlari.

4. Iqtisodiy o'sish tsikllari.

Dars jixozlari: *Prezident asarlari, bukletlar, foto albomlar, jadval va grafiklar.*

Darsda qo'llaniladigan vositalar: *kompyuter, video ko'zgu, proektor, multimediya.*

Dars o'tishda kullaniladigan uslublar: *og'zaki, ko'rgazmali, amaliy, , suxbat, intervyu.*

Dars o'tish texnologiyasi: intervyu, Klaster, Bumerang, aniqlashtirilgan maqsadli differentsial texnologiya.

Reja savollariga javob berishga o'tishdan avval o'qituvchi, talabalarni iqtisodiy o'sish tushunchasini qay darajada tushunishlarini o'rganish maqsadida, bir vaqtning o'zida intervyu, bumerang, klaster texnologiyalaridan foydalanib talabalarga quyidagi savol bilan muroja'at qilishi mumkin: (savollar berilishidan avval o'qituvchi guruxni uchga bo'lib oladi. Har bir guruxga tegishli texnologiya topshiriqlari beriladi).

Intervyu texnologiyasi bo'yicha: Aytinglarchi, iqtisodiy o'sish deganda nima tushiniladi? Iqtisodiyot uchun ahamiyati kanday? (albatta, talabalar o'z javoblarini ketma-ketlikda bayon etadilar)

Bumerang texnologiyasi bo'yicha quyidagi savollar ikkinchi guruxga beriladi, lekin ular javoblarini yozma ravishda bayon etishlari uktiriladi).

- 1.Iqtisodiy o'sish ko'rsatkichlari deganda nimalar nazarda tutiladi?
- 2.Kichik va xususiy biznesni iqtisodiy o'sishga ta'siri qanday bo'ladi?
- 3.Iqtisodiy o'sishga ta'sir etuvchi omillar qaysilar deb o'ylaysiz?

Klaster texnologiyasi buyicha: uchunchi gurux talabalariga o'qituvchi biznes va tadbirkorlik tushunchalari bilan bog'liq tayanch iboralarni tarmoqlarga bo'lib yozishlarini talab qiladi.

SHart. Har bir gurux tayyor bo'lgandan sung bir birlariga xalaqit bermasdan javob berishlari kerak,har bir javob diqqat bilan tinglanishi zarur va talabalar bir-birlarini fikr-muloxazalarni xurmat qilishlari kerak.

Yuqoridagi qo'llanilayotgan texnologiyalar birinchidan, talabani uyda qanchalik mustaqil tayyorlanganligini ko'rsatsa, ikkinchidan, o'qituvchi uchun mavzu bayonida bu fikrlar tayanch iboralar vazifasini o'taydi, ya'ni talabani bor bilimini o'qituvchi boshka materiallar asosida boyitadi).

Aytilgan fikrlar o'qituvchi tamonidan umumlashtiriladi va rejada berilgan har bir savolga o'qituvchi talabalarning javoblariga asoslanib tushuntirishlar beradi,ya'ni ma'ruza qiladi. Ma'ruza matni oldindan talabalarga tarqatilganligini inobatga olib, uni biz quyida keltirmaymiz. Ma'ruza darsi so'ngida o'qituvchi mavzu yuzasidan talabalarning savollariga javob beradi, umumlashtiradi va uyga vazifa berib, dars yakunlanadi.

**«Iqtisodiy o'sish va uning omillari» mavzusini
o'qitish texnologiyasi**

Rishton pedagogika va iqtisodiyot kasb-hunar kollejining 3-bosqich	Fan: «Iqtisodiy bilim asoslari»	9-Mavzu 2 soat
22 ta talaba		
Dars shakli		Ma'ruza
Ma'ruza rejasi:	1. Iqtisodiy o'sish va uning iqtisodiyot uchun ahamiyati. 2. Iqtisodiy o'sish omillari. 3. Iqtisodiy o'sish turlari. 4. Iqtisodiy o'sish tsikllari. 5. Iqtisodiy inqirozni iqtisodiy o'sishga ta'siri	
Darsning maksadi:		Talabalarga iqtisodiy o'sish haqida Tushuncha berish, ularda iqtisodiy bilim, Malaka, ko'nikma xosil kilish.

Pedagogik vazifalar: • iqtisodiy usish xakida tushuncha berish; • bozor iqtisodiyoti sharoitida iqtisodiy usishning ahamiyatini gapirish; • iqtisodiy usish omillari, turlari va tsikllari bilan talabalarni tanishtirish; • Iqtisodiy inqirozni iqtisodiy usishga ta'sirini misollar orkali talabalarga konspekt kildirish.	O'quv natijalari: • bozor iqtisodiy usish xakida tasavvurga ega bo'ladilar; • iqtisodiy usish omillari, turlari va tsikllari bilan tanishadilar va sanab beradilar; • iqtisodiy inqirozni iqtisodiy usishga ta'sirini solishtiradilar va taxlil qiladilar; • talabalarda iqtisodiy, bilim, malaka, ko'nikma xosil bo'ladi va ularni iqtisodiy dunyokarashlari shakllanadi.
O'quv vositalari:	Ma'ruzalar matni, market, doska, bor, vatman, tarkatma materiallar.
Ta'lim shakli va metodlari:	Ma'ruza, savol-javob, Klaster, Bumerang, Intervyu.
SHart-sharoit:	Kichik guruxlar bilan ishlash uchun texnik jixozlangan auditoriya, bor, doska.

**«Iqtisodiy o'sish va uning omillari» mavzusini
Texnologik haritasi**

Ish bosqichlari va mazmuni	FAOLIYAT	
	O'qituvchi	Talaba
Tayyorlov Boskich	Mavzuni muammoli vaziyatni (muammoni) tanlaydi, maksadni natijani va uning baxolash mezonini shakllantiradi. Muammoni yechish uchun zarur shakl va vositalarni aniklaydi.	Ma'ruza matnidan o'tiladigan mavzuni o'qiydilar.
1-bosqich O'quv mashg'ulotiga kirish	1.1. «Iqtisodiy usish va uning omillari» mavzusi bilan tanishtiradi. Utilayotgan mavzu ma'ruza tarzida tashkil etilishi xakida e'lon qiladi. Kuzlangan maksad va rejalashtirilgan natija xakida tuxtaladi.	Eshitadilar, yozib oladilar.

2-bosqich Asosiy qism (55 minut)	2.1. Talabalarni diqqatini jalb uchun savollar beradi: -iqtisodiy usish nima? -omil deshgandda kim nimani tushunadi? -bozor iqtisodiyoti sharoitida iqtisodiy usishning ahamiyatini bilasizmi? -iqtisodiy tsikllar nima? 2.2. Talabalardan olingan javoblarni taxlil kilib, yangi mavzuni uzi bayon etadi. 2.3. Talabalarni uch guruxga bo'ladi va har bir guruxga tegishli savollar beradi. Savollar tegishli texnologiyalarga asoslangan xolda tuzilgan bo'ladi. 1. Iqtisodiy usish tushunchasini «Klaster» texnologiyasi buyicha tavsiflang. 2. Iqtisodiy usish tushunchasiga mos ravishda iqtisodiy terminlarni yozib chiking. 3. Yuqoridagi ikki savolni ogzaki javobini eshitishni aytadi. 2.4. Eshitadi.	Savollarga javob beradilar. Talabalar eshitadilar, yozib oladilar. Talabalar uch guruxga bo'linadilar. Tashkil bo'lgan guruxchalar uzlarini savollariga javob izlaydilar, tayyorlanadilar. Talabalar prezentatsiya qiladilar, ya'ni javob beradilar.
3-bosqich. Yakunlovchi qism	3.1. Talabalarning muammochalarni yechish jarayonlarini taxlil kilib beradi. Kuzatish natijalari jarayonida faol talabalarni aytib utadi, jarayonning kamchiliklari xakida tuxtaladi. 3.2. Natijalarini baxolaydi. Yaxshi ishtirokchilarni ragbatlantiradi. 3.3. Yakuniy xulosalaydi.	Talabalar eshitadilar, kamchilik va yutuklari bilan tanishadilar.

3.1.1-Jadval

«Iqtisodiy o'sish va uning omillari» mavzusidan ma'ruza mashg'ulotini tashkil etishdan oldin talabalarning o'zlashtirish ko'rsatgichlari

O'zlashtirish darajalari	Tajriba sinov guruxi		Nazorat guruxi	
	Talabalar soni	O'zlashtirish ko'rsatgichi (%)	Talabalar soni	O'zlashtirish ko'rsatgichi (%)
Yuqori	5	20	5	24
O'rta	4	16	3	12

Quyi	16	64	16	64
Jami:	25	100	25	100

Jadval ma'lumotlaridan ko'rinib turibdiki, tajriba sinov guruxidagi talabalardan har uchchala savolga olingan javoblar yukori - 20 %, o'rta 16 %, quyi 64 % bo'lgan bo'lsa, nazorat guruhida yuqori 24 %, o'rta 12 %, quyi 64 % ni tashkil etgan. Bundan ko'rinib turibdiki, tajriba sinov guruhidagi ma'ruza mashgulotida olingan javoblar nazorat guruxidagi ma'ruza mashgulotida olingan javoblarga nisbatan deyarli bir xil.

Endi «Iqtisodiy o'sish va uning omillari» mavzusidan tashkil etilgan ma'ruza mashgulotidan so'ng olingan natijalarni quyidagi jadvalda keltiramiz.

3.1.2-Jadval

«Iqtisodiy o'sish va uning omillari» mavzusidan tashkil etilgan ma'ruza jarayonida talabalarning o'zlashtirish ko'rsatgichlari

O'zlashtirish darajalari	Tajriba sinov guruxi		Nazorat guruxi	
	Talabalar soni	O'zlashtirish ko'rsatgichi (%)	Talabalar soni	Uzlashtirish ko'rsatgichi (%)
Yuqori	15	60	12	48
o'rta	8	32	8	32
quyi	2	8	5	20
Jami:	25	100	25	100

Jadval ma'lumotlaridan ko'rinib turibdiki, tajriba sinov guruxidagi talabalardan har uchchala savolga olingan javoblar yuqori 60 %, urta 32 %, quyi 8 % bo'lgan bo'lsa, nazorat guruxida yuqori 48 %, urta 32 %, quyi 20 % ni tashkil etgan. Bundan ko'rinib turibdiki, tajriba sinov guruxidagi ma'ruza mashgulotida

olingan javoblar nazorat guruxidagi ma'ruza mashgulotida olingan javoblarga nisbatan yuqori. Talabalar faoliyatini ma'ruza va seminar jarayonida baxolash mezonlari quyidagilarga asoslandi.

86 – 100 % 2 ball «a'lo», 71 – 85 % 1,7 ball «yaxshi», 55 – 70 % 1,4 ball «qoniqarli».

Yuqoridagilardan qisqacha xulosa qilib shuni aytish mumkinki, zamonaviy pedagogik texnologiyalardan foydalanib iqtisodiy bilimlarni o'qitishda quyidagi samaradorlikka erishiladi:

- talabada mukammal iqtisodiy bilim, malaka va ko'nikma xosil bo'ladi;
- talaba ta'lim jarayonining nafaqat ob'ekti, balki sub'ektiga aylanadi;
- talabada iqtisodiy tafakkur kamol topadi;
- talaba o'ylanadi, izlanadi, mushohadalaydi va natijada mustaqil qaror qabul qiladi;
- fikrni ochiq bayon qilishni o'rganadi;
- talabalarning iqtisodiy bilimga bo'lgan qiziqishi kuchayadi, iqtisodiyotga qiziqishi kuzatiladi;
- iqtisodiy ta'limda ketma-ketlik yuzaga keladi.

Demak, bu kabi texnologiyalarni «Mikroiqtisodiyot» fani ta'lim jarayoniga jalb qilish yo'llarini belgilash ta'limning barcha bosqichlarida uning samaradorligini oshirishga imkon beradi. Bu esa o'zlashtiriladigan yangi materialni yanada tushunarli va aniq tasavvur qilish, misollar bilan izohlay olish imkonini yaratadi.

3.2. Interaktiv texnologiyalarni qo'llashni rag'batlantirish

Kollejda faoliyat ko'rsatayotgan o'qituvchi zamonaviy pedagogik texnologiyalar, ta'lim-tarbiya jarayonini faollashtirish usullari va o'qitiladigan fanlar bo'yicha sifatli bilim, ko'nikma va malakalarni hosil qilishni ta'minlovchi pedagogik usullarni qo'llay bilishi lozim. U zamonaviy pedagogik

texnologiyalarning mohiyati, maqsadi va vazifalarini o'rganib chiqib, ular haqida ilmiy asoslangan ma'lumotlar, amaliy yo'llanmalar ishlab chiqishi, ilg'or pedagogik va axborot texnologiyalarini o'zlashtirganidan so'ng, uni ta'lim tizimiga joriy eta olishi kerak.

Bugungi kunda ijtimoiy-iqtisodiy islohotlar jarayoni, jamiyatning tez o'zgarib borayotgan turmush sharoiti, ta'lim tizimiga ta'sirchanlik va tezkorlik xossalari berilishini, ya'ni ijtimoiy va iqtisodiy taraqqiyot talablariga javob berish, shaxs qobiliyati va iste'dodini hisobga olish imkoniyat va shart-sharoitlarini yaratishni taqozo etadi.

O'quv-tarbiya dasturlarining ta'sirchanligi va tezkorligini ta'minlash ta'lim jarayonini differentsiatsiyalash muammosi bilan uzviy bog'liq. Hozirgi sharoitda, so'zda emas, ishda uzluksiz ta'lim tizimiga ta'limni differentsiyalash printsip va mexanizmlarini joriy etish kerak.

Ta'limni differentsiatsiyalash zamonaviy ta'lim tizimining asosiy xususiyatlaridan biridir. U o'quvchi-talabalarning shaxsiy ehtiyojlari, layoqati, imkoniyatlari, qiziqishlari, kasb tanlashidan kelib chiqqan holda turli ko'rinishda bilim olish imkoniyatini beradi.

Kollej o'quv-tarbiya jarayonida qatnashuvchi barcha sub'ektlarning o'zaro samarali ta'sirini ta'minlovchi mexanizmlar va shart-sharoitlarni yuzaga keltirish zarur. Umuman olganda, ushbu tizimning barcha tarkibiy qismlari – oila, uzluksiz ta'lim, mahalla, jamoat birlashmalari, jamg'armalar mavjud. Biroq, birinchidan, ularning o'z ichidagi samaradorlik faoliyatini ko'tarish, ikkinchidan, samarali ta'sirchanlik, ya'ni uzviyligi, bir-biriga chambarchas bog'liqligidan kelib chiqib ularning faoliyatini takomillashtirish lozim.

Kasb-hunar kollejlari faoliyatini ijtimoiy institutlar sifatida tubdan qayta ko'rib chiqish zarur. Bunda, maktab, litsey, kollej, institutlarni nafaqat ilmfan maskani, balki haqiqiy madaniy-ma'rifiy markazlarga aylantirish kerak. Ular

mahalla, oila, jamoat birlashmalari bilan yaqindan aloqada bo'lishlari shart. Ushbu maskanlarda ijod qilish ruhi, ijtimoiy faollik, shaxsiy ishtirok, o'zaro hamkorlik muhitining yaratilishi, bir tarafdin, mustaqil fikr yurituvchi shaxsni tarbiyalashga, ikkinchi tarafdin, yangi ijtimoiy muhit, tafakkurning shakllanishiga olib keladi.

Talabalarda darslik, ilmiy-ommabop va qo'shimcha adabiyotlar bilan mustaqil ishlash ko'nikmalari, ijodiy va mustaqil fikrlashni rivojlantirish maqsadida modulli ta'lim texnologiyalaridan foydalaniladi. Modulli ta'lim texnologiyalarining o'ziga xos jihati o'rganilayotgan mavzu bo'yicha talabalarning mustaqil va ijodiy ishlashiga imkon beradigan modulli dastur tuziladi. Talabalar modul dasturi yordamida mustaqil va ijodiy ishlab, mashg'ulotlardan ko'zlangan maqsadga erishadilar.

O'quv-tarbiya jarayonida hamkorlikda o'qitish texnologiyasi metodlaridan foydalanish har bir talabani kundalik qizg'in aqliy mehnatga, ijodiy va mustaqil fikr yuritishga o'rgatish, shaxs sifatida ongli mustaqillikni tarbiyalash, talabada shaxsiy qadr-qimmat tuyg'usini vujudga keltirish, o'z kuchi va qobiliyatiga bo'lgan ishonchini mustahkamlash, ta'lim olishda mas'uliyat hissini shakllantirishni ko'zda tutadi. Hamkorlikda o'qitish texnologiyasi har bir talabaning ta'lim olishdai muvaffaqiyati guruh muvaffaqiyatiga olib kelishini anglagan holda muntazam va sidqidildan aqliy mehnat qilishga, berilgan topshiriqlarni sifatli bajarishga, o'quv materialini puxta o'zlashtirishga zamin tayyorlaydi.

Kollej tizimidagi ta'lim jarayonida olib boriladigan mashg'ulotlarda hamkorlikda o'qitish texnologiyasining guruhlarda o'qitish, zigzag yoki arra, kichik guruhlarda ijodiy izlanishni tashkil etish metodlaridan foydalanish uchun pedagog har bir metodning didaktik maqsadini anglagan holda o'quv topshiriqlarini tuzadi va ulardan o'z o'rnida foydalanish yo'llarini belgilaydi.

Umuman olganda, ta'lim tizimida faoliyat ko'rsatayotgan har bir pedagog quyidagi zamonaviy pedagogik texnologiyalarni, ya'ni:

- zamonaviy pedagogik texnologiyalarning ilmiy-nazariy asoslari;
- pedagogik texnologiyalar kontseptsiyasining rivojlanish tarixi;
- ta'lim jarayoniga texnologik yondashish haqida tasavvurga ega bo'lish;
- pedagogik texnologiyalarning didaktik qonuniyatlarini;
- o'qitiladigan fanga tegishli ilg'or o'qitish texnologiyalarini;
- didaktik jarayonni ma'lum vaqt chegarasida loyihalanishi;
- o'qitishning faol metodlarini bilish va qo'llay olish;
- uy vazifalarini maqsadli, tashxisli va aniq o'quv element turi tarzida berish, texnologiya loyihalarining mantiqiy tuzilmasi, korrektsiyasi;
- o'quv maqsadlari tavsiyanomasini ishlab chiqish;
- test topshiriqlarini talaba faoliyat darajalariga mos holda tuzish bo'yicha ko'nikmalarga ega bo'lish sharti;
- internet kompyuter tarmog'idan foydalanish;
- o'quv jarayoniga elektron pochtdan foydalanish bo'yicha ko'nikmalarga ega bo'lish;
- reyting nazorati va talabalarning bilimlarini ob'ektiv baholashni bilishi kerak.

Taklif o'rnida shuni aytish mumkinki: Hozirgi zamonaviy texnologiyalar asrida o'rta maxsus kasb hunar ta'lim tizimida, oiliy ta'lim tizimida ham pedagog kadrlardan talaba yoshlarga ta'lim berishda qo'llaniladigan usul va vositalardan samarli foydalanish davr talabiga aylanib bormoqda. Talimga berilgan etiborni dep bilim beruvchi pedagog kadrlardan ham sifatli har taraflama bilim salohiyatiga ega bo'lgan mutaxasislarni yetishtirip berish talab qilinmoqda. Dars davomida maruza va amaliyot darslarini nisbatan jonliyroq olip borish esa hozirgi jaxon ta'lim tizimida o'zini oqlap kelayotganligi so'zimizning yorqin ifodasidir. Pedagogik sohada faoliyat olip borayotgan har bir soha hodimi ham

o'ziga ajratilgan mashg'ulot davomida hozirgi kunda keng qo'llanilip kelinayotgan"BBB,Muzyorar"va bosqa pedagogic texnologiyalardan foydalanmaydi.Masalan BBB texnologiyasini olaydigan bo'lsak bu usul avvalo talaba yoshlarda savol berishga yoki hayotning kelgusi davrida ham tushinmagan narsasini so'rab bilip olish qobiliyatlarini shakllantirishga yordam beradi.

O'qituvchilarga bilim berish tizimida talab qanchalik yuqori qoyiladigan bo'lsa ularni rag'batlantirish ham shunga munosib bo'lmog'i zarur.Rag'batlantirish masalasiga to'qталadigan bo'lsak, eng avvalo ilg'or va inovatsiyalarni o'quv jarayoniga qo'llayotgan ustozlarga moddiy tarafdан qo'llab-quvvatlashni yo'lga qo'yish masalalarini hal qilish lozim dep hisoblanadi.Buni qanday qilib amalga oshirish jarayoni esa avvalo ta'lim maskanlarining raxbarlariga bog'liq deb takidlash mumkinChunki hozirgi kunda Prezidentimiz tomonidan ham takror va takror ta'lim sifatini oshirish masalalariga katta e'tibor berilmoqda.Shu o'rinda takidlash joizki ta'lim jarayonini tubdan isloh qilish masalalari kun tartidagi dolzarb muammolaridan biri bo'lib hosoblanmoqda.Shu nuqtai nazardan fan sohasining mutahasislarini fikricha ta'lim jarayonida nafaqat ma'naviy balki moddiy rag'batlantirishni o'rni beqiyosligi aniqlangan.Misol tarzida quyidagi vaziyatni keltirishimis mumkun:Agar ustoz o'quv jarayoniga yangilik kiritса unga nisbatan e'tibor ko'proq bo'lishi,ya'ni moddiy rag'batlantirish amalga oshirilsa nafaqat u tomondan,balki boshqa ustozlar tomonidan ham yangiliklarni joriy etishga intilish hissi paydo bo'ladi.Buning natijasida pedagoglarni layoqati har tomonlama oshib boradi.

Hozirgi kunda deyarli har bir sinf honalari maxsus kameralar bilan jihozlangan kollej yoki oliy talim mamuriyatining maxsus shu sohani mutaxasislari yordamida har bir fan o'qituvchising 10daqiqalik dars mashg'ulotini kuzatish orqali u dars mashg'ulotida zamonaviy pedagogik

texnologiyalardan foydalanish darajasi aniqlanadi. Shu o'rinda takidlab o'tish kerakki bu usulda faoliyat olib borayotgan o'qituvchilarning darsida qatnashadigan talabalarning soni boshqa fan o'qituvchilarinikidan ancha yuqori bo'ladi. Rag'batlantirishni buni turlicha ko'rinishlarda amalga oshirsa maqsadga muvofiq bo'ladi. Masalan: muassasada o'zini kasbiy mahoratini ko'rsatib, bilim berayotgan o'qituvchilarning fan olimpiyadalari yoki boshqa ko'rik tanlovlarda faxrli o'rinlarni egallayotgan talabalarning o'qituvchilarini barcha jamoaning oldida maxsus Faxriy yorliq, tashakkurnoma, pul mukofotlari yoki bo'lamasa salomatligini tiklash uchun ziyoratgohlarga yo'llanmalar berish orqali taqdirlasa, bu o'sh faol o'qituvchini faolligini yanada kotarishga amaliy yordam bergan boladi.

O'rta maxsus kasb-hunar ta'limi metodlari klassifikatsiyasi.

O'quv faoliyatiga qiziqtirish va rag'batlantirish metodiga – o'quv bilish va o'quv ishlab chiqarish faoliyatini tashkil qilish hamda o'qish faoliyatiga qiziqtirish metodlari kiradi.

O'quv faoliyatiga qiziqtirish va rag'batlantirish metodiga – o'quv bilish va o'quv ishlab chiqarish faoliyatini tashkil qilish hamda o'qish faoliyatiga qiziqtirish metodlari kiritilgan

O'quv faoliyati samaradorligini va o'z-o'zini nazorat qilish metodiga – og'zaki, yozma va amaliy nazorat o'z-o'zini nazorat, hamda bilim darajalari bo'yicha testlar o'tkazish kabi metodlar kiradi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

O'zbekiston Respublikasida uzluksiz ta'lim soxasida olib borilayotgan kadrlar tayyorlash bo'yicha islohotlar mamlakat iqtisodiyotini malakali mutaxassislar bilan ta'minlashga imkon beradi. Yangicha yondashuv, yangicha fikrlash asosida o'qitish jarayonida bilim oluvchilarning o'quv-biluv faoliyatining samarali shakl va uslublarini joriy etish, ularning mustaqil ishlarini samarali

tashkil qilish kerak. O'quv-tarbiya jarayonini ilmiy va metodik jihatdan mukammal tashkil etish muvaffaqiyatlar garovidir. Bunda barcha turdagi mashg'ulotlar va mustaqil topshiriqlar talabalarni o'ylashga, ijodiy mehnat qilishga, xar tomonlama fikr yuritishga, berilgan topshiriqlarni o'z xayotiy tajribalariga asoslanib xal etishga o'rgatadi.

Rishton pedagogika va iqtisodiyot kasb-hunar kollejida tadqiqot natijalariga ko'ra o'quv faoliyatida pedagogik texnologiyalarni, jumladan innovatsion usullarni joriy etish orqali quyidagilarga erishildi:

- Ta'lim sifati, o'qitish mazmuni va samarasi oshdi;
- Dars mashg'ulotlarida qulaylik sifat – samaradorlik bog'liqligi amalga oshirildi;
- Talabalarning topshiriqlarni oldindan bajarishlariga imkon yaratildi;
- Mustaqil ish soatlari kengayishi xisobiga talabalar o'z vaqtlarini mustaqil taqsimlashga va bu vaqtdan samarali foydalanish huquqiga ega bo'lishdi;
- Talabalarda motivatsiyalarning yuqori bo'lishi ta'minlandi;
- O'tilgan materiallarni esda saqlab qolish darajasi ortdi, muloqotga kirish ko'nikmasi shakllandi;
- Talabalarda mustaqil ishlash qobiliyati va qarorlar qabul qilish san'ati rivojlandi.

Kollejda zamonaviy pedagogik, innovatsion texnologiyalarni, jumladan interfaol usullarni o'quv jarayonida samarali qo'llashni tashkil etish uchun quyidagilar to'sqinlik qilmoqda:

- Moddiy texnika bazasi, o'quv texnik vositalar bilan ta'minlanishning yetarli emasligi;
- O'quv rejadagi fanlarning son jixatdan ko'pligi;
- Talabaning shaxsiy rivojlanish va uning axborot maydonida mustaqil faoliyat yuritishga ko'nikmani kamligi;

- Katta auditoriya shaklidagi ma'ruza darslarida bu usullarni qo'llashning yuqoriligi;
- O'qituvchi va talabalarning kompyuter savodxonlik darajasini yetarli emasligi;
- Kollejda ta'lim texnologiyalarini tashkillashtirish va nazorat qilish markazi hamda monitoringni tashkil etilmaganligi.

Kollej ta'lim tizimini mazmunan modernizatsiya qilish va ta'lim – tarbiya samaradorligini hamda yangi sifat bosqichiga ko'tarishdan asosiy maqsad talaba yoshlarni zamonaviy bilish va kasbga ega bo'lishini ta'minlashdan iborat xisoblanadi. Mazkur maqsadga yetishish yo'lida o'qitishning innovatsion usullaridan keng foydalanish xayotiy zaruriyatligini nazarda tutgan xolda quyidagi xulosalarga kelindi:

1. Kollej pedagogik xodimlarini tayyorlash, kayta tayyorlash, innovatsion texnologiyalar bo'yicha malakasini oshirish tizimi faoliyatining samaradorligini oshirish, malakali mutaxassislar bilan to'liq ta'minlash choralarini belgilash;

2. Ta'lim tizimining barcha bosqichlarida Davlat ta'lim standartlari talablari bo'yicha, o'quv reja va dasturlari xamda darslik, o'quv qo'llanma va ko'rsatmalarni takomillashtirishni ta'minlash;

3. Kollejda virtual o'quv –laboratoriya, zamonaviy axborot kommunikatsiya, elektron texnika va masofadan o'qitish imkoniyatlarini kengaytirish, darslik, qo'llanma, multimediya, o'quv uslubiy majmua va o'quv filmlarining elektron turlarini yaratish va samarali foydalanishni ta'minlash yuzasidan quyidagi takliflar ishlab chiqildi:

- Ilg'or pedagogik texnologiyalarni innovatsion usullarini o'quv jarayoniga qo'llash maqsadida informatika va informatsion texnologiyalar bo'yicha o'qituvchilar malakasini oshirib borishni muntazam tashkil qilish kerak;

- Auditoriyalarning moddiy-texnika vositalar va zamonaviy ta'lim qurollari, asbob – uskunalari bilan jixozlash hamda ta'minlanish darajasini oshirish zarur;
- Ta'lim sifatini oshirish maqsadida guruxlarda o'quvchilar sonini kamaytirish orqali kichik guruxlar tashkil etish kerak;
- Mustaqil ish sifatini nazorat qilishning doimiy tizimini yaratish va talabalar mustaqil ishlash sifatini oshirish maqsadida internet tizimidan foydalanish imkoniyatlarini yanada kengaytirish zarur;
- Mavjud fanlardan yaratilgan fan dasturlarini uzviyligini va uzluksizligini ta'minlash zarur;
- Darsda pedagogik texnologiyani qo'llash jarayonida foydalaniladigan metod va vositalarning xilma – xil bo'lishini ta'minlash, hamda ular ichidan eng samaralisini tanlash maqsadga muvofiq bo'ladi;
- Dars mashg'ulotini dastlabki jarayonida talabalarning fanni o'rganishga bog'liq ishtiyoqini uyg'otish va dars maqsadi hamda vazifalarini talabalar bilan xamkorlikda ifodalash darsni jozibadorligini yanada oshiradi;
- Tadqiqot natijasiga ko'ra, xar qanday faoliyatning tarbiyaviy samaradorligi ko'proq uni tashkil etilish darajasiga bog'liqdir.

Yuqorida ishlab chiqilgan taklif – tavsiyalarni qo'llagan holda, ta'lim tizimi bilan bir qatorda, bevosita Rishton pedagogika va iqtisodiyot kasb-hunar kollejida ta'lim sifati va samaradorligini oshirilishi mumkin deb hisoblaymiz.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

O'zbekiston Respublikasi Qonunlari:

1. O'zbekiston Respublikasining “Ta'lim to'g'risida”gi Qonuni. T.: «SHarq».
2. “Kadrlar tayyorlash milliy Dasturi”. T.: «SHarq».

Darsliklar:

- 9.X.T.Omonov, N.X.Xo'jaev. "Zamonaviy ta'lim texnologiyalar va pedagogik mahorat". T.: "Iqtisod-Moliya", 2009 yil
- 10.I.Y.Tursunov. Pedagogika kursi. Darslik. T., "O'qituvchi"
- 11.G'. Ochilov. "Pedagogika" darslik. T. 2005 y.
- 12.B. Xusanov, V. G'ulomov Muomala madaniyati Darslik – T.: "Iqtisod-Moliya" 2009 yil
- 13.A. Zunnunov "Pedagogika tarixi" Darslik - T. "O'qituvchi" nashriyoti 2009y
- 14.A. Xoliqov "Pedagogik mahorat" Darslik - T. "O'qituvchi" nashriyoti 2011y
- 15.J. Xasanboev, va boshqalar "Pedagogika" Darslik - T.: "O'qituvchi" nashriyoti 2011y

O'quv qo'llanmalar:

- 16.N.Azizxo'jaeva. "Zamonaviy ta'lim texnologiyalar va pedagogik mahorat". T.: TDPU
- 17.R.Ishmuxamedov. "Innovatsion texnologiyalar yordamida ta'lim samaradorligini oshirish yo'llari". T.: TDPU
- 18.R.Ishmuxamedov. "Ta'limda innovatsion texnologiyalar". T.: "Iste'dod", 2008 yil
- 19.J.G.Yo'ldoshev, S.A.Usmonov. "Zamonaviy ta'lim texnologiya asoslari". T.: "O'qituvchi"
- 20.M.Ochilov. "Yangi zamonaviy ta'lim texnologiyalar". Qarshi.: "Nasaf", 2000 yil.
- 21.D. Ro'ziyeva va boshqalar "Interfaol metodlar mohiyati va qo'llanilishi". "Toshkent" 2013yil
- 22.N.Saydaxmedov. "Yangi zamonaviy ta'lim texnologiya mohiyati va zamonaviy loyihasi". T.: RTM, 1999 yil.

23.U.Tolipov. “Zamonaviy ta’lim texnologiyalarning tadbqiqiy asoslari”. T.: “Iqtisodiyot”, 2006 yil.

24.N.X.Xo’jaev, B.Yu.Xodiev. “Yangi zamonaviy ta’lim texnologiyalar”. T.: “Fan”

Gazeta va jurnallar

25.I.A.Karimov “Erishilgan yutuqlarni mustahkamlab, yangi marralar sari izchil harakat qilishimiz lozim”. O’zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Senatidagi 2005 yil yakunlariga bag’ishlangan ma’ruzasi «Xalq so’zi» gazetasi, 10 fevral, 2006 y

26.A.B.Isroilova O’rta maxsus va kasb-hunar ta’lim sifati va samaradorligini oshirishda pedagogik texnologiyalarning ahamiyati. Ta’lim texnologiyalari. Ilmiy uslubiy jurnal. № 1-2 (32, 33) 2012. 92b

Internet saytlari

27.www.BMI.uz O’qituvchilik mahorati

28.[www. Ziynet.uz](http://www.Ziynet.uz) Dissertatsiyalar (pedagogika)

29.www.pedagog.uz - O’zbekiston pedagoglar sayti

30.www.referat.uz – Talabalar sayti

31.[www.google. ru](http://www.google.ru) Jaxon sayti

I L O V A L A R


3.1.1-Jadval

«Iqtisodiy o’sish va uning omillari» mavzusidan ma’ruza mashg’ulotini tashkil etishdan oldin talabalarning o’zlashtirish ko’rsatgichlari

O’zlashtirish darajalari	Tajriba sinov guruxi		Nazorat guruxi	
	Talabalar soni	O’zlashtirish ko’rsatgichi (%)	Talabalar soni	O’zlashtirish ko’rsatgichi (%)
Yuqori	5	20	5	24

O'rta	4	16	3	12
Quyi	16	64	16	64
Jami:	25	100	25	100

«Iqtisodiy o'sish va uning omillari» mavzusidan ma'ruza mashg'ulotini tashkil etishdan oldin talabalarining o'zlashtirish ko'rsatkichlari



3.1.2-Jadval

«Iqtisodiy o'sish va uning omillari» mavzusidan tashkil etilgan ma'ruza jarayonida talabalarining o'zlashtirish ko'rsatkichlari

O'zlashtirish darajalari	Tajriba sinov guruxi		Nazorat guruxi	
	Talabalar soni	O'zlashtirish ko'rsatkichi (%)	Talabalar soni	Uzlashtirish ko'rsatkichi (%)

Yuqori	15	60	12	48
o'rta	8	32	8	32
quyi	2	8	5	20
Jami:	25	100	25	100

